



MILLIY ARMIYA – ONA YURT QALQONI, TINHLIGIMIZ POSBONI!

VATAN UCHUN, MILLAT UCHUN, XALQ UCHUN!

VATANPARVAR



**Har doim hozir,
har soniya shayi**



IJTIMOIY-SIYOSIY, MA'NAVIY-MA'RIFIY,
HARBIY-VATANPARVARLIK GAZETASI

GAZETA 1992-YILNING
4-IYUNIDAN CHIQA BOSHLAGAN
WWW.MV-VATANPARVAR.UZ

2026-YIL 3-APREL
№14 (3180)



"Amir Temur" ordenli shahar



Surxon qoyalari qayosh ilk nurlarini sochgan mahal Termiz osmoni go'yo qadim lashkarlarning mardona qadamlaridan qolgan jarangni yana bir bor uyg'otgandek bo'ladi. Bu shahar tarix sahnasida ko'p bor sinovdan o'tgan, Vatanga sadoqat va mardlikni qalbiga muhrlagan ajdodlar izidan bunyod topgan muborak maskanlardan biridir.

Bu yurtning shamoli ham qo'rqmas, daryosi ham jon-u dil bilan oqadi. Xalqining ruhi esa harbiylarning qat'iyati bilan uyg'unlashib ketgan. Har bir tepalik, har bir qadimiy yodgorlik o'tgan avlodlar jasorati, hozirgi kun soqchilarining matonati bilan qorishgan tirik tarixdir.

Shu bois Termiz shahri haqida so'z yuritilganda faqatgina shahar manzarasini tasvirlash, balki yurt sarhadlarini qo'riqlab turgan mard o'g'lonlar, el-yurtimizning tinchligini ko'z qorachig'idek asrayotgan harbiylar hamda asrlar davomida avlodlar avlodga o'tib kelayotgan jasorat maktabi ko'z oldimizda gavdalanadi. Bu zaminda vatanparvarlik go'yoki bolalikdan inson qoniga singib, muqaddas tuyg'uga aylangan. Shuning uchun ham bu yurtning qalbida hamisha mardlik, hamisha yurtparvarlik ruhi jonlanib turadi.

Amudaryoning jo'shqin oqimi va surxonning zabardast tog'lari bag'rida qurilgan bu qadimiy shahar bir necha sivilizatsiyalar chorrahasida bo'lgan. Kushonlar davlatining poytaxti sifatida mashhur bo'lgan. Eski Termiz xarobalari, madrasalar, Hakim at-Termiziy majmui bu yurtning ilm-u ma'rifatda, davlatchilikda va harbiy san'atda yuqori mavqega ega bo'lganini ko'rsatadi. Termizning tarixiy qatlamlari guvohlik berganidek, bu maskanda tug'ilgan har bir avlod o'z davrida yurt sarhadini mustahkamlashda o'ziga xos iz qoldirgan.

Bugungi kunda ham Termizning strategiyaviy ahamiyati beqiyos. Chunki u mamlakatning janubiy darvozasi, sarhad xavfsizligi ta'minlanadigan asosiy nuqtalardan biridir. U yerda joylashgan harbiy qismlar, chegara qo'shinlari va maxsus bo'linmalar nafaqat O'zbekiston, balki butun mintaqa xavfsizligini mustahkamlashda muhim o'ringa ega. Harbiylar uchun bu yurt shunchaki xizmat joyi emas, balki u qasamyod, sadoqat va jasorat sinovidan o'tish maktabidir.

Gazetamizning o'tgan sonlarida "Amir Temur" ordenini olgan shaharlar haqida so'z yuritgan edik. Ana shu yuksak mukofotga sazovor bo'lgan shaharlar orasida Termiz shahri ham bor. **2014-yilning 28-noyabr kuni O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 23 yilligi munosabati bilan Termiz shahri "Amir Temur" ordeni bilan mukofotlangan.**

Shaharning bu yuksak mukofotga loyiq ko'rilgani, avvalo, uning ko'p asrlik tarixiga, madaniy-ma'naviy qudratiga berilgan munosib e'tirofdir. Chunki Termiz shahri yurt taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan shaharlardan biri sifatida doimo o'z o'rniga ega bo'lib kelgan.

Mustaqillik yillarida esa Termiz shahri yangi qiyofa kasb etib, zamonaviy infratuzilmalar, ta'lim va sanoatning rivojlanishi yurtimizning yuksak salohiyatini yanada ochib berdi. Shahar millatlar o'rtasidagi o'zaro hurmat va hamjihatlik zamonaviy taraqqiyotning mustahkam poydevoriga aylangan.

Aynan shu maqsad va harakatlarning amaldagi samarasi sifatida Termizga berilgan "Amir Temur" ordeni, bir tomondan, tarixiy merosga munosabatning e'tirofi bo'lsa,

ikkinchi tomondan, kelgusi rivojlanish yo'lidagi ishonch va rag'batning yorqin ifodasidir.

Bugungi kunda Termiz aholisi ham ana shu mas'uliyatni chuqur his etgan holda yurt taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shishda davom etmoqda. Shaharda yoshlar ta'lim-tarbiyasiga alohida e'tibor qaratilmoqda, madaniyat va ma'rifat maskanlari zamonaviy ko'rinish kasb etib, tadbirkorlik va iqtisodiyot sohaslarida yangi imkoniyatlar yaratilmoqda. Millatlararo totuvlikni ta'minlash, aholi o'rtasida birdamlik va o'zaro hurmatni kuchaytirishda ham termizliklarning hissasi beqiyos.

Shu ma'noda, "Amir Temur" ordeni Termiz shahri uchun faqat tarixiy ramz yoki yuksak e'tirof emas, balki yangi marralar, yangi maqsadlar sari chorlovchi ma'naviy timsoldir. U har bir termizlikning qalbida g'urur, Vatanga sadoqat va kelajakka ishonch uyg'otadi. Orden taqdim etilgan kundan buyon Termiz shiddat bilan rivojlanib, o'zining tarixiy sharafiga munosib darajada yuksalish yo'lidan borishda davom etmoqda.

Darhaqiqat, Termiz shahri haqida gap ketganda, uning o'tmishi, bugungi kuchi va ertangi avlodga qoldirayotgan merosi bir-biriga chambarchas bog'langan holda namoyon bo'ladi. Shuning uchun Termiz shahri tariximiz sharafiga, bugungi kunimizning qudrati va kelajak avlodlarimizga qoldirayotgan merosimizdir. U haqida so'z yuritish jonli tarix, matonat maktabi va Vatan himoyasining muqaddas satrlarini qayta-qayta barq urdirish demakdir.

Umuman olganda, mazkur ordenning Termizga taqdim etilishi shaharning uzoq yillar davomida yurtimiz taraqqiyotiga qo'shib kelayotgan munosib hissasi, uning jamiyat siyosiy, ma'naviy va iqtisodiy hayotida tutgan o'rnining isbotidir. Bu ham yurt ravnaqi yo'lida astoydil mehnat qilgan, tinchlik va barqarorlikni asrashda, hamjihatlik va ahillikni mustahkamlashda o'ziga xos o'rnak bo'lgan bunyodkor xalqning ulug' xizmatlariga berilgan munosib bahodir.

Shahar aholisining ilm-fan, madaniyat, sanoat va ijtimoiy sohalarda erishgan tajribasi, milliy qadriyatlar va tarixiy merosni asrashga qaratilgan sa'y-harakatlari, ayniqsa yoshlar ongida vatanparvarlik, jasorat va sadoqat ruhini mustahkamlash borasidagi tashabbuslari bu e'tirofning asosiy mezonini bo'lib xizmat qiladi.

Aslida bu orden o'tmishdagi shonli sahifalarga hurmat, bugungi fidoyi avlodga mehr, kelajak bunyodkorlariga ishonch ramzidir. U nafaqat yurt taraqqiyotiga qo'shilgan hissaning mukofoti, balki yanada yuksak marralarni ko'zlashga undovchi kuch manbai hamdir.

Xulosa qilib aytganda, orden bilan taqdirlanish shaharning yuksak salohiyati, birdamligi va fidoyiligini yana bir bor namoyon qilib, kelgusida ham yanada katta yutuqlar sari mas'uliyat bilan qadam tashlashga mustahkam poydevor yaratadi.



**Leytenant
Mansurbek JABBOROV,
"Vatanparvar"**

Muhoraba tarixi

TURKIYLARNING URUSH YO'SINLARI

Turkiy xalqlar azaldan harbiy mahoratda yuksak marralarga erishgani bilan nom qozongan. Albatta, bunda ularning urush asnosida qo'llagan harbiy yo'sinlari asosiy o'rinda turgan. Ular shu tariqa raqibni mag'lubiyatga uchratishga erishgan. "Xalifalik askarlarining maqtovga loyiq sifatleri va turklarning fazilatleri" asarida ham aynan turklarning urush oldidan, urush asnosida va urushdan so'ng qo'llagan harbiy yo'sinlari haqida muhim ma'lumotlar keltirilgan.

Asarda qayd etilishicha, turklarning harbiy faoliyatida ularni arab yoki ajam qavmlaridan ajratib turadigan muhim jihat bor. Unga ko'ra, turklar kimga qarshi saf tortishidan qat'i nazar – arab, ajam yoki boshqa bir xalq bo'lsin – jangga tayyorgarlik jarayonida o'zlariga xos, puxta o'ylangan tartib va tashkiliy usullarni qo'llaydi. Ularning maqsadi, birinchi navbatda, dushmanning zararini va hiylasini o'z qo'shinlaridan chetlatishdir. Shu bois turkiy qo'shinlar jang maydoniga bir xil son, o'xshash tartib va ichki intizom bilan chiqishga alohida e'tibor beradi.

Agar sulhga erishishning iloji bo'lmasa va jang muqarrar bo'lib qolsa, turklarning asosiy sa'y-harakati o'z qo'shinlarini himoya qilish, saf tuzilmasini saqlash va jangchi kuchini yuqori darajada saqlab qolishga qaratiladi. Zarurat tug'ilganda, ular dushmanga qarshi turli hiylalar – aldov, yo'lni to'sish, yo'llarni chalkashtirish va dushmanni kutilmagan paytda bosib olish kabi yo'sinlardan foydalanadi. Johizning qayd etilishicha, boshqa xalqlar bu darajadagi harbiy ayyorlik va puxta tayyorlangan usullarni oldindan tasavvur ham qila olmagan.

Muallif turklarning mustahkam devorli shaharlarga kirib borish yoki Amudaryo kabi tabiiy to'siqlarni kesib o'tishda qo'llagan harbiy hiylalari bo'lganini ham ta'kidlaydi. Bu esa turklarning nafaqat ochiq maydon janglarida, balki qal'a olish, daryo kechuvini ta'minlash va yirik yurishlar kabi murakkab harbiy vazifalarda ham malakali bo'lganliklarini ko'rsatadi.

Umuman olganda, Johizning bu tasviri turklarning jang oldidan amalga oshiradigan harbiy tayyorgarligi tasodifiy emasligi, balki uzoq yillik harbiy an'analar ta'sirida shakllangan murakkab tizimga asoslanganini ko'rsatadi. Ularning jangdagi muvaffaqiyati nafaqat jismoniy kuch va jasorat, balki oldindan o'ylangan reja, dushman niyatini oldindan bilish va jang davomida moslashuvchanlikka bog'liq bo'lgan.

"Ilk hamlaga kelganda, turklar bu ishda o'ta samarali, iz qoldiradigan va tezkordir. Chunki turklar hujumi shiddatli, azmi mustahkam bo'lsin, bo'shshmasin va fikri

o'zgarishsiz qolsin, deya otini ortga burmaslikka o'rgatadi".

Bu usul turklarning jang boshlanishida qo'llaydigan va raqib safini yorib o'tib, uni sarosimaga soladigan asosiy quroli bo'lgan. Buning guvohi bo'lgan Johiz, bunda asosiy e'tibor otga qaratilgani, ot jangga kirishdan oldin o'rgatilishini qayd etgan. Unga ko'ra, jangga kirishdan oldin turk otiga orqaga qaytmaslikni o'rgatadi, otga faqat oldinga tashlanish va dushman ustiga shiddat bilan hujum uyushtirishni uqtiradi. Bu esa dushmanni sarosimaga soladi va ilk hamladayoq dushmanni chekinishga majburlaydigan harbiy yo'sin sanaladi.

Muallif Xuroson lashkarlarining kamchiliklarini ta'riflar ekan, jang boshida ular orqaga chekinishga majbur bo'lsa yoki safni qayta tiklash uchun ortga yursa, dushman ustiga bostirib kelgan paytda ko'pincha mag'lubiyat yuz berishini aytadi. Ularning orqaga qaytmay turib oldinga intilishi ham ba'zan zarar yetkazadi, chunki tartibsiz harakat safning buzilishiga olib keladi va dushman uchun qulay imkon yaratadi. Xorijiyalar esa bir bor qochsa, ularni qayta to'xtatib bo'lmaydi, bunday holdan so'ng ular juda kam hollarda yana hujum qilishga jur'at etadi. Turklar bunday emas. Ular xurosonliklar kabi tartibsiz tarzda hujum qilmaydilar va orqaga chekinish ham ularning jang uslubida dushmanni

chalgituvchi, kuchli zarbaga tayyorlovchi bir vositadir.

Asarda ta'kidlanishicha, turklarning orqaga chekinishi o'zlari uchun emas, balki dushman uchun halokatlidir. Chunki **turkiy jangchi oldinga qarab qanday mohirlik bilan o'q o'tsa, orqa tomonga ham xuddi shunday aniqlik bilan o'q uzadi. Shuning uchun ham dushman ularning orqaga qaytayotganini ko'rib, g'oliblik deya shoshilsa, aynan o'sha payt halokatga uchrashi mumkin.** Natijada turklar jang maydonida har ikki tomonga ham oldinga yurishda, ham orqaga qaytayotgan paytda dushmanga qarshi bosimni saqlab qoladi. Bu esa ularning jangovar ustunligi nafaqat to'qnashuvning bir bosqichida, balki har bir holatda namoyon bo'lishini ko'rsatadi.

Turon xalqlarining harbiy maydonidagi g'alabali onlari aynan ularning jang oldidan amalga oshiradigan harbiy tayyorgarliklariga bog'liq. Shu tayyorgarlik jarayonida otlarga alohida e'tibor berilgan. Jangga kiradigan har bir ot yoshligidan parvarishlangan, ularga jangda asqatadigan harakatlar va shiddatli hujumlar o'rgatilgan. Bu esa turklarga jang davomida dushman qo'shini safini yorib o'tishga, shiddatli hujum qilishga, dushmanni kutmagan paytda qo'qqisidan zarba berishga, oxirida g'alabaga olib kelgan asosiy omil deb aytish mumkin.

Turkiylarning jangni g'alaba bilan yakunlash uchun o'ylangan puxta rejaları ham mavjud bo'lib, arab muallifi uni shunday tasvirlaydi: **"Turkiyning orqaga chekinishi o'ldurguchi zahar kabi, chunki oldinga qanday aniq mahorat bilan o'q o'tsa, orqaga ham xuddi shunday o'q ota oladi".** Ko'rinib turibdiki, arablar Turkiston xalqlarining

o'qchilikda mohir ekanini bot-bot guvohi bo'lgan, shu sababdan ham, arablar orasida turonlikning to'rtta ko'zi bor: ikkisi boshining oldida, qolgan ikkitasi esa bo'yning orqasida, degan gap bo'lgani Johiz risolasida tamg'alanib qolgan.

Turklarning jang asnosidagi va jangdan keyingi mahorati haqida arablar juda yaxshi bilgan. Johiz turklarni jangdan keyin ta'qib qilish xato ekani, bunga hech kim jur'at qila olmasligi, chunki ta'qib qilish bilan baribir yetib olish mumkin emasligini shunday ifodalaydi: **"Xorijiy ta'qib qilsa, tutish bilan, ta'qib qilinsa, qochib qutulish bilan faxrlanadi. Turkning esa qochib qutulishga hojati yo'q. Chunki u ta'qib qilinmaydi, uni tutishga harakat qilinmaydi. Tutish umidi bo'lmagan narsani kim ta'qib qiladi?"**

Bu fikrlarning arablar tomonidan aytilishi ham bejiz emas. Chunki Turon hududiga yurish qilgan arab qo'shinlari bir necha marotaba turkiylarning shu jang usuliga aldanib qolishgan va dushmanni ta'qib qilamiz degan niyatda turkiylarning navbatdagi qurboniga aylanishgan. Shu sababli ham keyinchalik arablar orasida turkiylarni ta'qib qilish xato ish ekani haqida shunday zarbulmasallar tarqalganiga shubha yo'q.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Turon xalqlarining harbiy maydonidagi g'alabali onlari aynan ularning jang oldidan amalga oshiradigan harbiy tayyorgarliklariga bog'liq bo'lgan. Yaxshi harbiy tayyorgarlik dushmanni jang boshlanishi bilan oq shiddatli hujumlar bilan orqaga chekinishiga olib kelgan asosiy omil bo'lgan.

Javohir AZIMQULOV,
O'zbekiston Respublikasi
Fanlar akademiyasi
Tarix instituti
kichik ilmiy xodimi



Surat sun'iy intellekt yordamida tayyorlandi

Dolzarb – 20 kun

TEXNIK TAYYORGARLIK – JANGOVAR SHAYLIK OMILI

Sharqiy harbiy okrugda qurol-aslaha va harbiy texnikalarni yozgi mavsumga puxta tayyorlash maqsadida an'anaviy "Dolzarb – 20 kun" tadbirlariga start berildi. Mazkur tadbir harbiy texnikaning ishonchligini oshirish, ularning xizmat muddatini uzaytirish hamda harbiy qismlarning doimiy jangovar shayligini ta'minlashga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.



Unda okrugga qarashli harbiy qism va muassasalardan texnik ta'minot mutaxassislari, muhandis-texnik xodimlar hamda harbiy xizmatchilar faol ishtirok etmoqda. Jarayon davomida barcha turdagi texnika va qurol-aslahalar texnik reglament asosida sinchiklab ko'rikdan o'tkazilmoqda. Aniqlangan kamchiliklar joyida bartaraf etilib, zarur ehtiyot qismlar almashtirilmoqda hamda ta'mirlash ishlari amalga oshirilmoqda. Zotan, texnikaga xizmat ko'rsatishda intizom, aniqlik va texnik reglamentga qat'iy rioya qilish hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Tadbirlarda alohida e'tibor mavsumiy texnik xizmat ko'rsatish



Muhimi, "Dolzarb – 20 kun" nafaqat texnikalarni tartibga keltirish, balki harbiy xizmatchilarning o'z kasbiga bo'lgan mas'uliyatini yanada oshirishga xizmat qiladi. Har bir texnika ortida katta mas'uliyat yotganini anglash, uni doim soz holatda saqlash harbiy xizmatchining eng muhim vazifalaridan biridir.

Mutaxassislarning fikricha, mazkur tadbirlar harbiy texnikaning har qanday iqlim sharoitida ishonchli ishlashini ta'minlab, texnik nosozliklarning oldini olishga xizmat qiladi. Eng muhimi, bu kabi tizimli ishlar harbiy qismlarning jangovar salohiyatini mustahkamlashda muhim omil bo'lib qolmoqda.

Gulihumo MAJIDOVA,
Sharqiy harbiy okrug matbuot
xizmati bosh mutaxassisi

ishlarini yagona tizim asosida tashkil etishga qaratilgan. Shu maqsadda barcha harbiy qismlar uchun bir xil mezon va talablar ishlab chiqilib, xizmat ko'rsatish jarayonini standartlashtirish yo'lga qo'yilmoqda. Bu esa texnik xizmat sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Ko'rgazmali-amaliy mashg'ulotlar ham tadbirning muhim qismi bo'lib, ular orqali harbiy xizmatchilar texnikaga xizmat ko'rsatishning zamonaviy usullari bilan yaqindan tanishmoqda. Mutaxassislar tomonidan ilg'or tajribalar namoyish etilib, ishtirokchilarning nazariy bilimlari mustahkamlanib, amaliy ko'nikmalari yanada boytilmoqda.



Bunyodkorlik

YANGI BINO

yangi imkoniyat

Mamlakatimizda olib borilayotgan bunyodkorlik ishlari natijasida Yakkasaroy tumanida mudofaa ishlari bo'limining yangi binosi foydalanishga topshirildi. Mazkur inshoot nafaqat sohadagi xizmatlar sifatini oshirish, balki yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, harbiy xizmat tizimini yanada samarali tashkil etish maqsadida barpo etildi.

Yakkasaroy tumani mudofaa ishlari bo'limi binosi 1937-yilda qurilgan bo'lib, undan uzoq yillar davomida foydalanilgan. Vaqt o'tishi bilan binoda faoliyat yuritish qiyinlashgani sababli zamonaviy binoga ehtiyoj paydo bo'ldi. Barpo etilgan inshoot esa soha faoliyatini mutlaqo yangi bosqichga olib chiqadi.

Yangi bino zamonaviy talablarga to'liq javob berib, axborot-kommunikatsiya

o'rinbosari – shtab boshlig'i polkovnik Lazizjon Usmonov, Yakkasaroy tumani hokimi o'rinbosari Otabek Rixsiboyev, nuroniylar va keng jamoatchilik vakillari ishtirok etdi. Tadbirda so'zga chiqqanlar mamlakatimizda mudofaa tizimini mustahkamlash, armiyani modernizatsiya qilish va harbiy xizmatni tashkil etish borasida amalga oshirilayotgan

keng ko'lamli islohotlar haqida alohida to'xtaldi. Ushbu binoda harbiy xizmatga chaqiriluvchilar, ularning ota-onalari va fuqarolar uchun barcha zamonaviy qulayliklar yaratilgani ta'kidlandi.

Ta'kidlash joizki, ushbu bino faoliyat boshlashi natijasida fuqarolarga ko'rsatiladigan xizmatlar yanada samarali va tezkor yo'lga qo'yildi. Shuningdek,

harbiy xizmatchilar uchun qulay mehnat muhiti yaratildi.

– Mazkur maskan xodimlarning xizmat samaradorligini oshirishga katta yordam beribgina qolmay, harbiy xizmatchilarning malakasini yuksaltirish, ularga zamonaviy texnologiyalar va usullar bilan tanishish uchun muhim maydon yaratdi, – deydi Yakkasaroy tumani mudofaa ishlari bo'limi boshlig'i podpolkovnik



texnologiyalari bilan jihozlangan. Endi chaqiriluvchilar va harbiy xizmatga majbur shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlar elektron baza orqali aniq, tizimli va tezkor tarzda yuritiladi. Bu esa xizmat samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Ochilish marosimida Toshkent shahri hokimining o'rinbosari Durдона Rahimova, Toshkent harbiy okrugi qo'shinlari qo'mondonining birinchi



T. Eshmetov. – Bugungi kunda yurtimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli bunyodkorlik ishlari xalqimiz farovonligini ta'minlashga xizmat qilmoqda. Mudofaa ishlari bo'limining yangi binosi foydalanishga topshirilishi ham ana shu ezgu maqsadlar yo'lida amalga oshirilayotgan muhim qadamlardan biridir.

**Toshkent harbiy okrugi
matbuot xizmati**

Chegara qo'shinlarida

ZAMON BILAN HAMNAFAS

Yurt himoyachilarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ular uchun munosib xizmat sharoitlarini yaratish davlatimiz rahbari, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondonining doimiy diqqat markazida bo'lgan muhim masalalardan biri. Zero milliy armiyamizni zamonaviy qurol-aslaha va harbiy texnikalar bilan ta'minlash nechog'li zarur bo'lsa, ushbu texnikalarni yaxshi tushunib, ularni samarali qo'llay oladigan professional kadrlarni tayyorlash bundan-da ahamiyatlidir.

Shu bois kuch tuzilmalaridagi harbiy xizmatchilar uchun har tomonlama qulay va barcha zarur shart-sharoitlarga ega bo'lgan zamonaviy binolarni qurib foydalanishga topshirish jarayonlari izchil davom etmoqda.

Xususan, Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlariga qarashli Toshkent viloyati Bekobod tumanida joylashgan harbiy qismlarning birida ham sarhadlarimiz himoyachilari uchun barpo etilgan yangi chegarani



qo'riqlash vzvodi endilikda ularning o'z ustilarida ishlab, samarali faoliyat olib borishlari uchun muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Binoning ochilish marosimida Chegara qo'shinlari mas'ullari, hamkorlikdagi tashkilotlar vakillari, faxriylar va yoshlar ishtirok etdi. Bunday sharoitlarning yaratilishi yuksak e'tibor va g'amxo'rlik namunasi bo'lib, Vatan o'g'lonlari zimmasiga katta mas'uliyat yuklashi alohida ta'kidlangach, binoning ramziy kaliti tantanali tarzda topshirildi. Shundan so'ng davlat chegarasini qo'riqlash jarayonida yuqori natijalarga erishib kelayotgan bir guruh harbiy

xizmatchilar esdalik sovg'alar bilan taqdirlandi hamda amalga oshirilgan bunyodkorlik ishlarida jonbozlik ko'rsatgan quruvchilar rag'batlantirildi.

Tantanali tadbir yakunlangach, mehmonlar bu yerdagi sharoitlar bilan yaqindan tanishish imkoniga ega bo'ldi. Keng va yorug' xizmat xonalari, ma'naviy-ma'rifiy va jismoniy tayyorgarlik sifatini oshirish uchun yaratilgan sharoitlar, milliy hamda jahon adabiyotining durdona asarlari bilan boyitilgan kutubxona, shinam oshxona, tibbiyot xonasi kabi qulayliklar barchaga birdek manzur bo'ldi.

– Bugun eng olis chegaraoldi hududlariga borsangiz ham xuddi shu kabi zamonaviy shart-sharoitlarga ega bir-biridan ko'rkam binolarga guvoh bo'lasiz. Biz bundan juda faxrlanamiz va hamisha shaxsiy tarkibga bir joyda to'xtab qolmasliklari, hamisha o'z ustilarida ishlab, zamon bilan hamnafas bo'lishlari kerakligini tushuntirib kelimiz. Chunki uzoq emas, yaqin o'tmishga nazar salsak, biz oliy harbiy bilim yurtini tamomlab, xizmatga kelgan vaqtlarimizda bunday sharoitlar yo'q edi. Shuning uchun ham yoshlarimizga yaratilayotgan imkoniyatlardan unumli foydalanib, Vatan bizga ishonib topshirgan sarhadlar

daxlsizligini so'zsiz ta'minlashimiz zarurligini uqtiramiz, – deydi podpolkovnik Zamridin Islomov.

Tadbir davomida chegara qo'riqlovida foydalanilayotgan harbiy texnika va qurol-aslahalar namoyishi tashkil etilib, mazkur jarayonda o'quvchi-yoshlar o'zlarini qiziqtirgan ko'plab savollarga javob oldi.

Albatta, yuksak e'tibor va g'amxo'rlik namunasi bo'lgan ushbu manzil chegarachilarning yurt tinchligini ta'minlashdek mas'uliyatli xizmat faoliyatlarida katta kuch-g'ayrat va shijoat manbai bo'lib xizmat qilishi, shubhasiz.

Mayor Farida BOBOJONOVA
DXX Chegara qo'shinlari



AMIR TEMURNING ZAFARLI YURISHLARI: strategiya va mahorat

Amir Temur nafaqat harbiy sohada, balki davlat boshqaruvida ham eng bilimli va o'z ishining ustasi bo'lgan mutaxassislarni (me'morlar, olimlar, muhandislar) to'plagan. U kim bo'lishidan qat'i nazar, o'z sohasining dahosi bo'lgan insonlarni qadrlagan va ularga keng imkoniyatlar yaratgan.

Amir Temur insoniyat tarixidagi eng kuchli harbiy strateglardan biridir. U 35 yillik zafarli yurishlari davomida birorta jangda mag'lub bo'lmagan. Buning siri esa faqatgina qo'shinning ko'pligida emas, balki Temurning noyob taktik yurishlari, razvedka tizimi va kutilmagan harbiy hiylalarida bo'lgan. Temur dushmanni ruhiy jihatdan sindirishda ustasi farang bo'lgan.

Uning eng mashhur taktikalari:

Tungi olovlar – dushmanni sarosimaga solish uchun Temur askarlariga tunda juda ko'p miqdorda gulxan yoqishni buyurgan. Bu uzoqdan qaraganda qo'shinning soni aslidagidan bir necha barobar ko'pdek ko'rinishiga sabab bo'lgan.

Qalbaki chekinish – Sohibqiron qo'shinining bir qismini "mag'lub bo'lib qochayotgandek" ko'rsatib, dushmanni qulay pozitsiyadan chiqargan va ularni pistirmaga yetaklab borgan.

TEREK DARYOSI BO'YIDAGI JANG

Bu jang taktik moslashuvchanlik va muhandislik niqoblashning klassik namunasi.

"Ayollar qo'shini" hiylasi – Temur qo'shini uzoq davom etgan yurishdan charchagan bir paytda, u tavakkal qiladi. Jangovar askarlarning haqiqiy sonini yashirish uchun u yuk ortilgan aravalaridagi ayollarga sovut va dubulg'a kiyib, qurollangan holda orqa saflarga turishni buyuradi. Uzoqdan bu cheksiz zaxira kuchlaridek ko'rinadi va To'xtamish askarlarining ruhiyatini tushirib yuboradi.

Yolg'on kechuv – Temur bir joyda daryodan o'tishga tayyorgarlik ko'rayotgandek ko'rinib, To'xtamishni o'z kuchlarini qirg'oq bo'ylab yoyib yuborishga majbur qiladi. Tun qorong'isida esa asosiy kuchlar boshqa joydan daryoni tezkorlik bilan kesib o'tib, dushmanning qanotiga zarba beradi.

Qalqonlar devori – u "toshbaqa" taktikasini qo'lladi, bunda piyodalar ulkan qalqonlar bilan yopilib, kavaleriya hal qiluvchi qarshi hujumga tayyorlanguncha, dushmanning kamon o'qlari yomg'iriga dosh beradi.

DEHLI SULTONLIGINING TOR-MOR ETILISHI

Bu yerda Temur o'sha davrning "tanklari" – ustiga sovut kiydirilgan va tishlariga zaharli xanjarlar bog'langan jangovar fillarga duch keladi.

Uning askarlari bunday maxluqlarni ilgari ko'rmagan va dahshatga tushgan edi.

Olovli tuyalar – Hindiston yurishida Sulton Mahmudning fillariga qarshi Temur o'ziga xos hiyla ishlatgan. Temur barcha tuyalarni to'plab, ustiga quruq o't va shox-shabba yuklashni buyurgan. Fillar hujumga o'tganda, shox-shabbaga o't qo'yilib, tuyalar dushman tomon haydalgan. Natijada, tirik mash'alaga aylangan qo'rqan tuyalar fillar ustiga yopiriladi. Olov va shovqindan dahshatga tushgan fillar orqaga qaytib, o'z armiyasini toptab tashlaydi va Temur Dehlini deyarli qarshiliksiz egallaydi.

NIKOPOL JANGI

Temur Nikopol jangida shaxsan qatnashmagan bo'lsa-da, uning taktikasi Sharqqa katta ta'sir ko'rsatgan. Uning Boyazid qo'shinidagi Yevropa yollanma askarlari va ritsarlari bilan to'qnashuvi harakatchanlikning og'ir sovutlardan ustunligini isbotladi.

Holdan toydirish – Temur og'ir kavaleriyaga hech qachon peshma-pesh hujum qilmagan. U ritsarlar atrofida aylanib, ularning otlarini kamondan o'qqa tutuvchi otliq kamonchilardan foydalangan.

"Bo'ri chohlari" tuzog'i – ba'zi janglarda uning muhandislari bir kechada yashirin xandaqlar qazib, ichiga qoziqlar o'rnatishgan. Zich safda hujumga o'tgan ritsarlar bu chohlarga qulab, oson o'ljaga aylangan.

Amir Temur qo'shinining tuzilishi. Temur armiyasi ko'chmanchilarning harakatchanligini imperiyaning qat'iy intizomi bilan birlashtirgan mukammal mexanizm edi. U Chingizxonning o'nlik tizimini takomillashtirdi.

Qo'shin tarkibi va ta'minoti.

- Og'ir kavaleriya, elita kuchlar, plastinkali sovutlar kiygan. Vazifasi – yakson qiluvchi zarba berish.

- Yengil kavaleriya, qo'shinning "ko'zi va qulog'i". Ular dushmanni tinimsiz o'qqa tutib, holdan toydirgan.

- Piyodalar, qal'a qamallarida va tog'li joylarda ishlatilgan. Maxsus tog' merganlari otlar yurolmaydigan qoyalarga chiqa olishgan.

- Muhandislik bo'linmasi, Temurning faxri. Pontonchilar bir necha soatda ko'priq qurishgan, qamal mashinalari ustalari esa har qanday qal'ani ola bilishgan.

Har bir askarning anjomi (Temur Tuzuklari bo'yicha):

Qurol, kamon (30 ta o'q bilan), qilich, tabar (bolta), xanjar, anjomlar, arqon, arra, bigiz, igna, charm suv idishi (turba) va oziq-ovqat zaxirasi. Har bir otliqda 2-3 tadan ot bo'lgan.

Temurgacha bo'lgan qo'shinlar odatda uch qismdan (markaz, o'ng va chap qanot) iborat bo'lgan. Sohibqiron esa bu tizimni murakkablashtirib, **"Yeti qo'l"** (yettita yirik bo'linma) tizimini joriy qildi.

Boshqalar qo'shinni uch qismga bo'lgan bir paytda Temur yetti qisimli murakkab jangovar tartibdan foydalangan:

1. Avangard (Qanbul) – birinchi zarbani qabul qiladi. Ilg'or qo'shin (razvedka va birinchi zarba).
2. O'ng qanot (Javong'or).
3. Chap qanot (Barang'or).
4. Markaz (Qo'l). Asosiy zarbdor kuch.
5. O'ng qanot zaxirasi.

6. Chap qanot zaxirasi.

7. Bosh zaxira (G'ul) – eng tajribali jangchilar, Temurning o'zi yoki o'g'illari boshchiligida. Dushman bor kuchini ishlatib bo'lganda jangga kirgan.

Bunday saflanish jang paytida qo'shinni egiluvchan qilardi, agar bir qanot chekinsa, zaxiradagi "ketma-ket" guruhi darhol uni to'ldirgan.

JAZO VA MUKOFOT TIZIMI

Amir Temur armiya qo'rquv bilan birga adolat va shaxsiy manfaat ustiga qurilishini tushungan.

- **Temir "Qamchi" (jazo)** – jang maydonidan qochganlarni ayollar kiyimida lager bo'ylab aylantirishgan (bu ko'chmanchi uchun o'limdan battar bo'lgan). Postda uxlab qolganlar kaltaklangan. Buyruqsiz talon-toroj qilish qat'iyan man etilgan.

- **Oltin "Shirinlik" (mukofot)** – har bir jasorat uchun unvon berilgan. "Suyurg'ol" – umrbodlik er egaligi taqdim etilgan.

Xulosa tariqasida shuni ta'kidlash joizki, Amir Temurning muvaffaqiyati – mutaxassisga ishonch bildirish va har bir qarorni yetti o'lchab bir kesishda edi. U "men podshohman, mening so'zim qonun" deb emas, balki "davlatning manfaati uchun qaysi yo'l to'g'ri?" degan tamoyil bilan ish ko'rgan.

U Chingizxon qoldirgan asosni islom va fors sivilizatsiyasi yutuqlari bilan boyitib, mukammal darajaga olib chiqdi. **Amir Temurning zafarli yurishlari faqat qilich kuchiga emas, balki yuksak intellekt va puxta o'ylangan rejalariga asoslangan edi.** Uning "Kuch – adolatdadir" degan shiori nafaqat boshqaruvida, balki harbiy intizomda ham asosiy o'rin tutgan. Sohibqiron qoldirgan harbiy san'at bugungi kunda ham dunyoning yetakchi harbiy akademiyalarida o'rganib kelinmoqda.

Amir Temurning harbiy muvaffaqiyati uchta ustunga tayangan: **temir intizom, mukammal razvedka va kutilmagan taktika.** U hech qachon tavakkal qilmagan, balki har bir qadamni oldindan hisoblagan. Bugungi kunda ham uning yurishlari West Point (AQSH), Sandhurst (Buyuk Britaniya), Fransiya va Rossiya kabi dunyoning eng nufuzli harbiy akademiyalarida strategiya namunasi sifatida o'qitilmoqda.

Farmon URINOV,
Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti
dotsenti, iste'fodagi polkovnik



Qadim tarixga nazar solsak ona yurtimizda ko'plab jasur, mard harbiy qavm va sulolalar yashab o'tganiga guvoh bo'lamiz. Jumladan, bosqinchilarga qarshi kurash olib borgan, o'z yurti va qavmini himoya qilgan qabilalar qatorida olonlar harbiy an'analari muhim ahamiyatga ega. Olonlar – tarix sahnasida ming yildan ortiq vaqt mobaynida hukmronlik qilgan, jangovarligi va harbiy san'ati bilan dunyoni larzaga solgan eroniy (*forsiy*) qabilalarning yorqin vakillari. Ularning tarixi harbiy yurishlar, qahramonliklar va fojialar bilan to'la. Qadimgi Xorazm vohasi, aniqrog'i hozirgi Gurlan tumani hududidan chiqqan ushbu qavm o'zlarining jangovar mahoratlarini bilan nafaqat Markaziy Osiyo, balki Yevropa va Shimoliy Afrikada ham iz qoldirgan.

TARIX SAHNASIDAGI

Olonlar haqida so'z yuritilganda, ularning harbiy mahoratini alohida ta'kidlash lozim. Rim imperiyasi, hatto olonlarga qarshi maxsus harbiy qo'llanma yaratgan, Rim kavaleriyasi esa olon otliqlarining taktik usullarini o'zlashtirgan. Bu haqiqat olon harbiy maktabining naqadar yuksak darajada bo'lganini ko'rsatadi.

Tarixchi olimlarning tadqiqotlariga ko'ra, olonlar milodning I-II asrlarida Amudaryo irmog'i hududida yashagan eroniy qabila hisoblanadi. Bu fikrni mashhur olonshunos olim Vladimir Kuznesov ham tasdiqlaydi: **“Olonlar Kavkazga I asr oxirida kelib, sharqdan, ehtimol O'rta Osiyodan, aniqrog'i hozirgi O'zbekiston hududi – Xorazmdan ko'chib o'tgan”.**

Xitoy yilnomalarida bu qavm “Yansay” (*Alanlyao*) nomi bilan tilga olingan bo'lib, ular “Kangyuy (*Qang'li*)ga tobe bo'lgan” va “xo'jaligi, urf-odatlar va kiyimlari Kangyuynikiga o'xshash” ekani qayd etilgan. Bu ma'lumotlar olonlarning Markaziy Osiyodagi ilk maskanlari haqida muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

“Olon” etnonimi etimologiyasi ham ularning eroniylikini tasdiqlaydi. Mashhur lingvist V. Abayev ta'kidlaganidek, “olon” so'zi qadimgi eroniy-oriy “arya” (*ariy*) so'zidan kelib chiqqan. Bu esa olonlarning skif-sarmat qabilalari bilan bir ildizga ega ekanligini ko'rsatadi. Osetin tilida hozir ham “allon” (*allon*) so'zi saqlanib qolgan bo'lib, u xalq og'zaki ijodida uchraydi.

Qizig'i shuki, olonlarning tarixiy Vatani bo'lgan hozirgi Xorazm viloyati Gurlan tumani hududida ushbu qadim qavmning tilidan qolgan toponimlar hali ham saqlanib qolgan. Xususan, “Gurlan” so'zining o'zi ham olonlar bilan bevosita bog'liq. “Gur olon” – “gur” (*qabr, go'r*) va “olon” (*alan*) so'zlaridan tarkib topgan bo'lib, “olonlar qabristoni” yoki “olonlar go'ri” degan ma'noni anglatishi mumkin. Bu esa ushbu hududda qadimda olonlarning katta qabristoni bo'lganidan dalolat beradi.

“Bog'olon” toponimi esa “bog'” va “olon” so'zlaridan tarkib topgan bo'lib, “olonlar bog'i” yoki “olonlar maskani” degan ma'noni

bildiradi. Osetin tilida “bog'” so'zi hozir ham “bog'”, “daraxtzor” ma'nosida saqlanib qolgan. Bu esa Bog'olon qishlog'i qadimda olonlarning go'zal tabiatli, daraxtzor maskani bo'lganini ko'rsatadi.

Yana bir qiziq toponim – “Chubolonchi” (*Cho'pon olon + chi*). Bu so'z “cho'pon” (*cho'pon, charvachi*) va “olon” (*alan*) hamda “chi” (*kasbdosh*) qo'shimchasidan tarkib topgan bo'lib, “olon cho'ponlari” degan ma'noni bildiradi. Bu toponim olonlarning chorvachilik, xususan qo'ychilik bilan shug'ullanganini ko'rsatadi. Tarixiy manbalarda olonlarning asosiy xo'jalik mashg'uloti chorvachilik, ayniqsa ot va qo'y boqish bo'lganligi qayd etilgan.

Bog'olon qishlog'i mahalliy aholisi tilida hozirgi kungacha bir qator eroniy til atamaları saqlanib qolgan. Bu so'zlar asrlar davomida mahalliy tillar bilan aralashib, o'zlashtirilgan shaklda bo'lsa-da, o'z ildizini saqlab qolgan. Quyida shunday atamalardan ayrimlarini keltiramiz:

“Sarxum” – bu so'z “sar” (*bosh, katta*) va “xum” (*xum, idish*) so'zlaridan tarkib topgan bo'lib, xumdan suv olish uchun mo'ljallangan kichik hajmdagi idish ma'nosini bildiradi. Eroniy tillarda “sar” so'zi “bosh”, “yuqori”, “katta” ma'nolarida ishlatiladi. Qishloq aholisi hozir ham katta suv idishi oldiga qo'yilgan krujkani “sarxum” deb ataydi.

“Poyapul” – “poya” (*oyoq, poydevor*) va “pul” (*ko'prik*) so'zlaridan tarkib topgan. Bu so'z ariq yoki soy ustidan tashlangan kichik ko'prikchani anglatadi. Eroniy tillarda “poya” so'zi “oyoq”, “asos” ma'nosida ishlatiladi. Qishloq aholisi suv yo'llari ustidan o'tish uchun qurilgan oddiy inshootlarni shu nom bilan ataydi.

“Patik” – bu so'z baland, yuqori o'zagiga ega bo'lib uning shifti degan ma'noni anglatadi. Eroniy tillarda “pati” so'zi “baland”, “yuqori” ma'nolarini bildiradi. Qishloqda hali ham uy shifti patik deyiladi.

“Jurrob” – bu so'z paypoq ma'nosini bildiradi. Eroniy tillarda, xususan forsiyda “djurob” so'zi

paypoq ma'nosida ishlatiladi. Qishloq aholisi hozir ham paypoqni “jurrob” deb ataydi. Bu so'z o'zbek tilining boshqa shevalarida “paypoq” yoki “jo'rob” shaklida uchraydi.

Bu atamalarning mavjudligi Bog'olon qishlog'i aholisining qadimgi eroniyzabon xalqlar, xususan olonlar bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatadi. Lingvistik meros asrlar davomida saqlanib, hozirgi kungacha yetib kelgan.

Olonlarning harbiy an'analari ilk sarmat davrida, milodning I-II asrlarida shakllana boshlagan. Ular asosan otliq askarlar bo'lib, yengil va og'ir qurollangan qo'shin turlariga bo'lingan. Olon jangchilarining asosiy qurollari kamon, o'qdon, qilich, nayza va jangovar boltalardan iborat bo'lgan.

Don daryosi oldi hududidagi arxeologik topilmalar olon jangchilarining qurol-aslahalari haqida qimmatli ma'lumotlar beradi. Tadqiqotchi A. Kriganovning yozishicha, olonlar orasida eng ommaviy qurol jangovar bolta-chekanlar bo'lgan. Uzoqdan jang qilish uchun kamon va uch parrakli temir o'q uchlilari ishlatilgan olon qo'shinining tarkibi ham diqqatga sazovor. A. Kriganovning tadqiqotlariga ko'ra, **280 dan ortiq harbiy dafn marosimlari tahlili shuni ko'rsatadiki, olon askarlarining aksariyati piyoda askarlar bo'lib, asosan boltalar bilan qurollangan.** Otliq qo'shin nisbatan kam sonli bo'lsa-da, lekin aynan otliqlar jangovar qobiliyati eng yuqori qism hisoblangan. Ijtimoiy jihatdan olon qo'shini ikki qatlamdan iborat bo'lgan: asosiy qism – xalq orasida yollangan piyoda askarlar va drujina, ya'ni maxsus tayyorgarlikdan o'tgan otliq jangchilar. Otliq jangchilar qabila aristokratiyasi va boy jangchilardan iborat bo'lib, ular ilg'or harbiy kuchini tashkil etgan.

Olonlarning tarixida german qabilalari bilan tuzilgan ittifoq alohida o'rin tutadi. **IV asrning oxirida gunlarning bosqini natijasida olonlar ikkiga bo'lingan:** bir qismi gunlarga bo'ysunib, ular bilan birga G'arbga yurish qilgan bo'lsa, ikkinchi qismi Kavkazda qolib ketgan. G'arbga



ketgan olonlar 406-yilda vandallar va german qabilalari bilan birga Reyn daryosini kechib, Galliya (*hozirgi Fransiya*) hududiga kirgan.

German qabilalari bilan tuzilgan bu ittifoq, harbiy jihatdan juda muhim bo'lgan. Olonlar otliq qo'shin sifatida, vandallar va german qabilalari esa piyoda askarlar sifatida bir-birini to'ldirgan. Bu ittifoq tufayli, ular bir necha yil ichida Galliya va Ispaniyaning katta qismini egallab olishga muvaffaq bo'lgan.

MAHOBATLI HARBIY QAVM

Tarixchi Prokopiy Kesariyskiyning yozishicha, vandallar va olonlar o'rtasidagi ittifoq shu qadar mustahkam bo'lganki, ular birlashib, yagona podshohlik – Shimoliy Afrikadagi Vandal-Alan podshohligini barpo etgan. Bu podshohlik 429-yildan 534-yilgacha, Vizantiya imperatori Yustinian I tomonidan bosib olingunicha davom etgan.

Olonlarning Yevropaga keng miqyosda ko'chib borishi va u yerda uzoq vaqt yashashi natijasida, "Olon" (*Alan*) va Yodgor (*Edgar*) ismi Yevropa xalqlari tomonidan keng o'zlashtirilgan. Aynan shu ismlar olonlar orasida ko'p tarqalgan, chunki jangda halok bo'lgan askarlar xotirasiga ularning tug'ilgan farzandlariga Yodgor ismi qo'yilgan. Bu ism hozirgi kungacha Yevropada keng tarqalgan bo'lib, turli shakllarda uchraydi.

Mashhur ingliz yozuvchisi Edgar Allan Poning ismidagi "Allan" ham aslida olonlar nomi bilan bog'liq. Fransiyada "Alen" (*Alain*) ismi juda mashhur bo'lib, uning etimologiyasi bevosita olonlar bilan bog'liq.

Ispaniyada "Alano" ismi ham uchraydi. Buning ustiga, Ispaniyada "alano" so'zi it zotining nomi sifatida ham saqlanib qolgan. Olonlar Ispaniyaga o'zlarining qo'yuchuvon itlarini olib kelgan va bu zot "alano" deb atala boshlagan. Hozirgacha Ispaniyada alano itlari saqlanib qolgan va ular to'ng'izlar ovi hamda chorva boshqarishda foydalaniladi.

Shu jumladan, Vengriyada "Alan" ismi ham uchraydi. Bularning barchasi olonlarning Yevropa tarixi va madaniyatida chuqur iz qoldirganini ko'rsatadi.

Olonlar tarixda, eng avvalo, harbiy kuch sifatida nom qoldirgan. I-III asrlarda ular Azov bo'yi va Kavkazoldidagi sarmat qabilalari orasida yetakchi mavqe egallab, Qrim, Zakavkazye, Kichik Osiyo va Midiyaga hujumlar uyushtirgan.

Rim tarixchisi Ammian Marsellin IV asrda olonlar haqida shunday yozgan edi: "Deyarli barcha olonlar baland bo'lyi va go'zal... Ular o'zlarining g'azabli nigohlari bilan qo'rqinchli, qurollarining yengilligi tufayli juda tez harakatlanadilar... Ularda jangda jon bergan kishi baxtli sanaladi".

Olonlarning harbiy mahorati shu qadar yuksak bo'lganki, hatto Rim imperatorlari ularga qarshi maxsus taktika ishlab chiqqan. Tarixda Rim imperatori Flaviy Arianning "Olonlarga qarshi jang" (*"Ektaxis kata Alanoon"*) asari mavjud bo'lib, u olonlarga qarshi kurash usullarini batafsil yoritib bergan.

Olon otliqlarining asosiy taktik usuli – to'satdan hujum qilib, dushman saflarini yorib kirish va tezda ortga chekinish bo'lgan. Bu uslub keyinchalik ko'plab xalqlar, jumladan Rim kavaleriyasi tomonidan o'zlashtirilgan. Olonlar Kavkaz ortida, Kaspiy va Qora dengiz sohillaridagi harbiy yurishlarda faol qatnashgan.

Qizig'i shundaki, olonlarning bir qismi Xorazmga yaqin hududlarda qolib, keyinchalik Xazar xonligi tarkibiga kirgan. Arab manbalarida ular "arsiya" (*al-arsiya*) nomi bilan mashhur. Tarixchi al-Masudiyning yozishicha, xazar qo'shini tarkibiga 7 ming arsiya jangchisi kirgan. Ushbu arsiyalar Xazar xonligining eng ishonchli harbiy kuchi bo'lib, ular asosan xorazmlik musulmonlardan iborat bo'lgan. Bu harbiy qismlar xazarlarning musulmon davlatlari bilan munosabatlarida muhim rol o'ynagan.

Arsiyalarning mavjudligi olon-xorazm aloqalarining uzluksizligini va ularning harbiy an'analari necha asrlar davomida saqlanib qolganini ko'rsatadi. Abu Rayhon Beruniy ham asarlarida aslar yoki olonlar ilgari pecheneglar bilan quyi Amudaryo bo'yida yashaganliklari, daryo o'z o'zanini o'zgartirgandan so'ng ular Xazar dengizi (*Kaspiy*) tomonga ko'chib ketganlari haqida ma'lumot qoldirgan. Bu ma'lumot olonlarning Xorazm bilan bog'liqligini yana bir bor tasdiqlaydi.

IV asrning 70-yillarida gunlarning bosqini olonlar taqdirida tub burilish yasadi. Gunlar Don daryosi bo'yidagi olonlarga hujum qilib, ko'plarini qirgan, omon qolganlari esa ular bilan ittifoq tuzgan. Birgalikda ular 375-yilda gotlarni tormor keltirgan. Shundan so'ng olonlarning bir qismi gunlar bilan birga G'arbga qarab harakatlangan.

406-yilda olonlar vandallar bilan birga Reyn daryosini kechib, Galliya (*hozirgi Fransiya*) hududiga kirgan. Ular bu yerda Orlean va Valens shaharlari atrofiga joylashgan. 409-yilda esa Pireney orqali Iberiya yarim oroliga (*Ispaniya*) o'tgan. Ispaniyada olonlar Luzitaniya va Kartaxena provinsiyalariga joylashib, mahalliy aholiga harbiy jihatdan ustunlik qilgan.

418-yilda vestgotlar Ispaniyadagi olonlarni tor-mor keltirib, ularning podshohi Attakes jangda halok bo'lgan. Shundan so'ng omon qolgan olonlar vandallarga qo'shilib, ularning podshohi Gunderixni "vandallar va olonlar podshohi" deb tan olgan. 429-yilda vandallar va olonlar Gibraltar bo'g'ozini orqali Shimoliy Afrikaga o'tib, u yerda kuchli podshohlik barpo etgan. Bu podshohlik VI asrning 30-yillarigacha, Vizantiya imperatori Yustinian I tomonidan bosib olingunicha davom etgan.

XIII asr olonlar uchun eng og'ir davr bo'ldi. 1238–1239-yillarda mo'g'ullar Alaniyaga bostirib kirdi va uni vayron qildi. **Tarixchi V. Kuznesovning yozishicha,** "1238–1239 va 1395-yillardagi bosqinlar yaxshi o'zlashtirilgan tog'oldi hududlaridagi olon aholisini har tomonga sochib yubordi. Kavkazoldi va don bo'yi olonlarining katta qismi yangi "xalqlar ko'chishi" davrida yuzlab, hatto minglab kilometr uzoqlikka ketishga majbur bo'lgan".

Biroq olon harbiy an'analari bu fojidan keyin ham yo'qolib ketmadi. Aksariyat olon zadogonlari o'z qabilalari bilan mo'g'ullar tomoniga o'tib, ularning harbiy yurishlarida faol qatnashdi. Xitoy va boshqa manbalarga ko'ra, 30 ming kishilik olon otliq qo'shini mo'g'ullarning Sharqdagi barcha harbiy operatsiyalarida faol ishtirok etib, o'zlarini ajoyib jangchilar sifatida ko'rsatgan. Mo'g'ullar davrida olon harbiy qismlari imperiyaning turli nuqtalarida xizmat qilgan. Olonlarning bir qismi Ichki Mo'g'ulistoniga jo'natilgan bo'lsa, boshqa qismi G'arbiy yurishlarda, jumladan rus knyazliklariga qarshi harbiy kompaniyalarda qatnashgan.

Gurlan va Bog'olon qishlog'i tarixiga kelsak, bu hudud olonlarning harbiy an'analari bilan bevosita bog'liq. Gurlan va Bog'olon atrofidagi hududlarda olonlarning qadimiy manzilgohlari va harbiy istehkomlari bo'lgan. Xorazm vohasidan chiqqan olonlar o'zlarining harbiy an'analari bilan

hududga olib kelgan va uzoq asrlar davomida saqlab qolganini tasdiqlaydi.

Tarixchi F. Gutnovning "Аланы: научно-популярные очерки истории" kitobida ta'kidlanishicha, aynan harbiy aristokratiya olon davlatchiligini shakllantirishda asosiy rol o'ynagan, davlat chegaralarini qo'riqlagan va butun Alaniya aholisining manfaatlarini himoya qilgan. Qadimda Gurlan atrofidagi Amudaryoda kemalar uchun o'rnatilgan

mayoq olonlar harbiy istehkomlaridan biri deb taxmin qilish mumkin.

Olonlarning harbiy tarixi bugungi kunda ham tadqiqotchilar diqqat markazida. A. Slanovning "Военное дело алан I - XV в.в." kitobida olon harbiy tashkilotining turli davrlardagi tuzilishi, ijtimoiy tarkibi, soni, qo'shin turlari, to'ldirish prinsiplari va moliyalashtirish manbalari chuqur tahlil qilingan.

E. Kaziyevnning "Аланские воинские подразделения в военно-административной структуре Монгольской империи" maqolasida olon harbiy qismlarining Mo'g'ul imperiyasi tizimidagi o'rni va vazifalari yoritilgan. Bu tadqiqotlar olon harbiy an'analarning uzluksizligini va ularning turli davlatlar harbiy tizimiga integratsiyasini ko'rsatadi.

Olonlar tarix sahnasida o'chmas iz qoldirgan buyuk harbiy qavmdir. Qadimgi Xorazm vohasi, xususan Gurlan tumani hududidan chiqqan bu eroniy qabila o'zlarining jangovar an'analari, harbiy san'ati va taktik mahorati bilan asrlar davomida shakllanib, avloddan-avlodga o'tib kelgan. Bog'olon qishlog'i va uning atrofidagi hududlar olonlarning harbiy madaniyati izlarini saqlab qolgan tarixiy manzillardan biridir.

Gurlan, Bog'olon, Chubolonchi kabi toponimlar, shuningdek mahalliy aholi tilida saqlanib qolgan eroniy atamalar olonlarning bu hududdagi uzoq davom etgan mavjudligini tasdiqlaydi. Bu nomlar asrlar davomida saqlanib, hozirgi kungacha yetib kelgan. Olonlarning harbiy an'analari nafaqat Kavkaz mintaqasida, balki Sharqiy Yevropa, Vizantiya va hatto uzoq Xitoygacha tarqalgan. Ular turli davlatlar qo'shinlari tarkibida xizmat qilib, o'zlarining jangovar mahoratlarini namoyon etgan. Olon otliqlarining taktik usullari keyinchalik ko'plab xalqlar, jumladan Rim kavaleriyasi tomonidan o'zlashtirilgan.

Bugungi kunda Gurlan va Bog'olon olonlarning boy harbiy tarixini o'zida mujassam etgan noyob tarixiy manzildir. Qishloq nomi, atrofdagi toponimlar, mahalliy aholi tilida saqlanib qolgan atamalar, arxeologik topilmalar va mahalliy rivoyatlar olonlarning shu hududdagi faoliyati haqida qimmatli ma'lumotlar beradi. Olon harbiy merosini o'rganish nafaqat tarixni, balki butun bir xalqning madaniyati va an'analari tushunishga yordam beradi.

Xorazm vohasidan chiqqan olonlarning jahongirlikka bo'lgan harbiy yo'li bu tarixdagi eng yorqin va ibratli sahifalardan biridir. Ularning jangovar ruhi, harbiy mahorati va matonati asrlar osha bizgacha yetib kelgan va qahramonlik timsoli sifatida yashab qolmoqda. Gurlan va Bog'olon esa ushbu buyuk tarixning tirik guvohi va merosxo'ri sifatida o'zligini saqlab qolmoqda.

**Marat RAHMATULLAYEV,
Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti dotsenti**

Umr daftari

“HAZIL-MUTOYIBA QILIB TURGAN SAFDOSHLARINGIZ BIRPASDA YONINGIZDA JONSIZ YOTISHI...”



Shunday insonlardan biri, Ikkinchi jahon urushida qatnashgan Akmal Akromov urush yillarining og'ir qiyofasiga yuzma-yuz kelgan, frontning eng xatarli nuqtalarida tinchlik uchun jonini ayamagan haqiqiy qahramon. Uning hayot yo'li jang, matonat, bardosh va eshitgan har qanday qalbni larzaga solguvchi xotiralardan tarkib topgan tirik tarixdir.

102 yoshni qarshi olgan Akmal Akromov 1924-yilning 22-dekabrida Toshkent shahrining Shayxontohur tumanida dunyoga kelgan. Uning bolaligi o'sha davrga xos qiyinchiliklar, hayotga erta kirgan mas'uliyat bilan o'tdi. O'sha yillar mashaqqatlarga to'la bo'lsa-da, uning qalbidagi Vatanga muhabbat va fidoyilik tuyg'ulari kun sayin mustahkamlanib bordi.

Vaqt o'tib, dunyoda avj olgan urush shiddati har bir xonadonga xavotir solayotgan pallada Akmal Akromov ham tinch o'tira olmadi. 1942-yilda u ko'ngillilar qatorida frontga yo'l oladi. O'sha vaqtda qahramonimiz endigina 17 yoshni qarshi olgan, hayotning hali yengil va yorug' sahifalarini ko'rishga ulgurmagani o'spirin edi.

Frontga ketish niyati uning uchun bir kunda qabul qilingan qaror emasdi. Mahalla ahli orasida urush haqidagi xabarlar tarqalgan sari Akmalning qalbidagi mas'uliyat tuyg'usi ham ortib borardi. “Yordamim kerak ekan”, degan bir o'y uning ongidan joy olgandi.

Front, dastlabki kunlardananoq uning bolalikni orqaga tashlab, haqiqiy hayot maktabiga kirganini ko'rsatdi. Hali hech qachon tankning quloqni qomatga keltiradigan ovozini ham eshitmagan

Ikkinchi jahon urushi faxriysi Akmal Akromov xotiralari

Urush, inson xotirasida asrlar o'tsa ham o'chmaydigan, qalblarda chuqur iz qoldiradigan og'ir sinovdir. Bugun u haqda bemalol gapira olamiz, lekin jangning haqiqiy taffini, dimog'ni kuydiradigan porox, o'q-dorilarning hidini, birzumda hayot bilan o'lim o'rtasida qolgan askarning yuragidagi titroqni faqat o'sha manzarani o'z ko'zi bilan ko'rganlarga his eta oladi.

yigit uchun bu juda katta sinov edi. Biroq Akmal o'ziga xos sabr, chaqqonlik va jasorat bilan tezda jang muhitiga moslashdi.

Qahramonimiz urushning ilk kunlarida okopda o'tirganicha, Toshkentning tinch ko'chalarini, oilasining mehrini sog'inari, ammo shuni tushunardi: bu yo'ldan endi qaytish yo'q. Oldinda faqat burch, faqat mas'uliyat turardi.

Shu tariqa, 17 yoshli yigitning hayotidagi eng dahshatli, biroq eng sharafli yo'l boshlandi. U yomg'irdek yog'ayotgan o'qlar o'rtasida tinchlik uchun kurashdi, o'ziga yuklangan vazifalarni a'lo darajada bajardi.

Akmal Akromov o'sha dahshatli yillarda nafaqat qurolni, balki umidini ham qo'ldan chiqarmadi. U har bir qadamida tinchlik uchun qon kechib, yurt ravnaqi uchun beg'ubor bolaligini qurbon qilgan insonlardan.

Bugun biz uning xotiralari quloq tutar ekanmiz, qahramonimizning hikoyalari faqat bir insonning taqdiri emas balki, butun bir xalqning o'tmishi, jasorati va erkinlikka bo'lgan intilishining jonli manzarasini ko'ramiz. Uning turli frontlarda kechgan kunlari, bir kun ham o'z yurtiga bo'lgan ishonchni yo'qotmagan ruhi, bugungi tinch hayotimizga asos bo'lgan ma'naviy merosdir.

“Urush haqida ilk bor eshitganimda, qanday sarosimaga tushib qolganim, hamon yodimda. Nemislar qanday qilib bizga, o'nlab millatlarni birlashtirgan ulkan bir davlatga hujum qilishi mumkin, hech aqlimga sig'dirolmasdim. Ularni osonlikcha taslim qilamiz, deb o'ylagandim.

Ammo g'alabaga erishish uchun to'rt yil kerak bo'ldi. O'sha vaqtda Toshkentdagi Voroshilov zavodining metall quyish sexida ishlardim. Muhandis-konstruktorlik bo'yicha o'qishga kirib, yangi stanoklar yasash haqida orzu qilardim, taqdir esa meni piyoda qo'shinlari safiga olib borib qo'shdi, – deya eslaydi Akromov o'zining yoshlik yillarini.

Yosh askarni tengdoshlari bilan bir qatorda, avvaliga Rossiyaning Stalingrad oblastiga yuborishadi. U yerda qahramonimiz safdoshlari bilan birga hududni dushmanidan tozalaydi. Stalingraddagi qonli to'qnashuvlardan so'ng Akmal Akromovning guruhi yangi front yo'nalishiga ko'chiriladi. U yerda ularga butunlay boshqa vazifalar – hujum jarayonlarida ishtirok etish,



muhim strategik punktlarni qo'lga kiritish va yo'l-yo'lakay aholini evakuatsiya qilish kabi mas'uliyatli vazifalar yuklatiladi. Janglar qachon va qayerda boshlanishidan qat'i nazar, yosh askar doimo safning oldingi qatorida turib, o'z jasorati bilan komandirlari va hamrohlarining hurmatini qozonadi.

U o'sha yillar haqida so'zlarkan, **“Ko'rganlarim haqiqiy qirg'in edi. Biz, yosh askarlar, qurol bilan qanday muomala qilishga o'rgatilganmiz, bunga ma'nan tayyor ham edik, ammo u yoqda duch kelganimiz... Biz bunga tayyor emasdik. Tinmay sodir bo'layotgan portlashlar, ikki soat avval hazil-mutoyiba qilgan safdoshlaringiz yoningizda jonsiz yotishi... O'shanda halok bo'lgan yigitlarning sanog'i yo'q”,** – deya eslaydi.

Mana shunday og'ir sharoitlarda Akmal Akromovning jasorati, matonati va o'ziga bo'lgan ishonchi yanada mustahkamlanib, uni haqiqiy front askariga aylantirdi.

Ana shunday og'ir janglarning birida Akromov havodan qilingan hujumda yaralanadi. U bilan birga bo'lgan 20 nafardan ortiq safdoshi esa jang vaqtida og'ir yaralanib, halok bo'ladi. Atrofdagi o'q ovozlari tinganidan so'ng qahramonimiz safdoshlarining jon taslim qilganini ko'rib, vaziyat og'irligini angelaydi. Shunga qaramay, u o'zini yo'qotmasdan, tirik qolish uchun dushman nazariga tushmaydigan joyga panalaydi. Yordam kelguncha hushini yo'qotgan Akromov harbiy kasalxonada o'ziga keladi.





“Stalingrad uchun jang juda qiyin kechgan edi. Son-sanoqsiz fashistlar hujumini boshdan o‘tkazganman. Shu bois ham jimjitlikni yoqtirmayman. Negaki, hamisha shunday bo‘lgan – avvaliga qatorasiga bomba tashlanadi, so‘ngra, kishini vahimaga soladigan, yolg‘ondakam tinchlik o‘rnatiladi. Ammo – bu bombardimonlar tugadi, degani emas. Oradan ma‘lum vaqt o‘tgach, osmonda yana qiruvchilar paydo bo‘ladi, o‘q ovozlari qayta tiklanadi. Biz esa okoplarda o‘tirgan holda, bu galgi bombardimonlar nima bilan tugashi, tirik qolamizmi-yo‘q, shu haqda o‘ylaymiz. Ko‘pincha musiqa yordamga kelardi, bolaligimdan kuy-qo‘shiqqa mehrim boshqacha edi. Shu bois mana shunday qo‘rqinchli holatdan chiqish, umidsizlikka tushmaslik uchun miyig‘imda qaysidir qo‘shiqni kuylashga tushardim, baland kuylash man etilgan edi”, – deya hikoya qiladi qahramonimiz.

Siz tasavvur ham qilolmaysiz, deb ta‘kidlaydi suhbatdoshimiz, yarim kechasi, omonat qayiqda tizzamizgacha suvga botib, daryo kechish nimaligini. Yoningizda kimdir olgan jarohatlar azobiga chidolmay baqiradi, kimdir suvga sakragan, siz esa bunday qilolmasligingizni bilasiz, chunki qurolingiz nam tortadi...

“Aytishadi-ku, vaqt har narsaning davosi deb. Bu yolg‘on. Yosh boshimiz bilan urushda ko‘rganlarimizni hech qachon unutmaymiz. Men buni sizga so‘z bilan ta‘riflab berolmayman, qonli jang, atrofingizdagilarning birin-ketin halok bo‘lishi, vaqt o‘tishi bilan kelajak haqida o‘ylashni unutasiz, xayolingizda faqatgina qanday qilib tirik qolish, bu jangdan, keyin keyingisidan omon chiqish haqida fikr miyangizda charx uradi xolos...”, – deydi Akromov.



Qahramonimiz shifoxonadan chiqqandan so‘ng ham, xizmatini turli joylarda davom ettiradi. Qay yerga borishidan qat‘i nazar, u har bir joyga tez moslashar, odamlar bilan til topishar, burchini sidqidildan ado etar edi. Urush yillarida orttirgan qat‘iyati, tezkorligi, mas‘uliyati unga katta tayanch bo‘lardi.

Kimdir yaralangach tinch hayotga qaytgan, kimdir kasbini almashtirgan bir paytda, qahramonimiz xizmatini davom ettirishni o‘zining burchi deb bilardi. “Mening hali qiladigan ishlarim ko‘p”, – derdi.

Nihoyat, 1945-yil may oyida fashistlar ustidan g‘alaba qozoniladi. Bu xabar frontda ham, orqa safda ham odamlarning yuragiga umid soladi. Ammo jangdan qaytgan har bir askar g‘alaba degani urush tugadi, uning og‘riqli xotiralari o‘chib ketadi degani emasligini yaxshi bilardi.

Qahramonimiz ham bu xabarni quvonch va iztirob aralash qabul qildi. Shunday bo‘lsa ham, g‘alaba xabarini eshitgan lahzada u birinchi marta “endi uyga qaytaman” degan fikrni xayolidan o‘tkazdi. Urush davomida kun-u tun frontlarda yurib charchagan vujudi tinchlik degan so‘zni eshitishga zor edi. Endi esa uni Vatanga qaytish, yangi hayot boshlash, tirik qolganlar bilan qayta uchrashish kutardi. Shunday qilib mish-mishlardan xabar topgan Akmal Akromov urush tugagandan so‘ng avgust oyida Toshkentga qaytadi.



“O‘sha la‘nati urush hali ham tushlarimga kiradi. Televizorda harbiy filmlarni ko‘rsam, butun vujudim titraydi. Kinoda aktyorlar rol ijro etadi, men esa bularning barchasini o‘z ko‘zim bilan ko‘rganman. O‘zing hujumga o‘tgan paytingda mard bo‘lishing, diqqatni jamlashing kerak: yoki seni o‘ldiradilar, yoki sen dushmani yo‘q qilishing kerak... Urushni



unutib bo‘lmaydi. Bu ulkan fojia. Bu faqat askarlarning emas balki, ota-onalar, bolalar, aka-uka, opa-singillar, barchaning musibatidir. Men oilada yagona farzand bo‘lganman. Ota-onam erta vafot etgan. Urushdan keyin turmush qurdim. Ikki qiz va ikki o‘g‘illi bo‘ldim. Inson o‘tmishni unutmasligi, undan xulosa chiqarishi lozim”, – deydi Akromov.

Urush tugagach, qahramonimiz uchun haqiqiy hayot boshlanganday bo‘ladi. Ammo frontdan qaytgan har bir askar kabi u ham birdaniga tinch hayotga moslasha olmadi. Odamlarga qanchalik kirishib ketmasin dahshatli urush xotiralari uni tark etmasdi.

Toshkentga kelib, poyezddan tushib uyiga qaytarkan uni atrofdagi sukunat hayratga soldi. Na qichqiriq, va na portlashlar – faqat oddiy odamlarning tinch hayoti. Unga, eng avvalo, ana shu sukunat g‘alati tuyuldi, lekin aynan shu osoyishtalikni u yurakdan sog‘ingan edi.

Oradan ko‘p o‘tmay, u tinch hayotga qaytib, bir paytlar orzu qilgan oddiy, lekin baxtli turmushni sekin-astalik bilan qayta qura boshladi. Urush oldidan yosh yigit sifatida o‘qish, kasb egallash, kelajakka o‘z hissasini qo‘shishni orzu qilgan bo‘lsa, tinchlik kelgach, shu orzularini birma-bir amalga oshirish imkoniyati paydo bo‘ldi.

1946-yilda u Moliya institutiga o‘qishga kiradi va bilimga tashnalligi tufayli, ta‘limni a‘lo baholar bilan tamomlaydi. Shundan so‘ng qahramonimiz o‘z yo‘nalishi bo‘yicha mehnat faoliyatini boshlab, tez orada mas‘uliyatli va fidoyi mutaxassis sifatida taniladi.

Akromovning mehnatsevarligi, xalq manfaatlariga sadoqati va mas‘uliyatli mehnati tufayli 1953-yilda deputatlikka saylanishi uning hayotidagi muhim burilishlardan biri bo‘ldi. Bu lavozim unga jamoatchilik oldida yanada kengroq faoliyat yuritish, mamlakat taraqqiyotiga hissa qo‘shish imkonini berdi. Oradan yillar o‘tib, 1973-yilda u iqtisodiy siyosatni olib borishda o‘z bilimi va tajribasi bilan alohida ko‘zga tashlangan rahbar sifatida faoliyat yuritdi. Uning tinimsiz izlanishi, bilimga chanqoqligi va Vatan oldidagi mas‘uliyati ana shu muvaffaqiyatlarning asosiy mezon bo‘ldi.

Biroq barcha yutuqlar, sharaf va lavozimlar orqada qolgan hayotning eng og‘ir xotirasi: frontga Toshkentdan ketgan 16 yigitdan faqat 6 nafarining uyiga qaytgani edi. Bugun esa o‘sha oltitadan ham faqat o‘zi tirik qolgan. Bu uning hayotida nafaqat qayg‘uli xotira, balki tinchlik va hayotning haqiqiy qimmatini anglatuvchi hayotiy darsga aylangan.

**Leytenant
Mansurbek JABBOROV,
“Vatanparvar”**

O'tmish sadosi



O'LIMIDAN SO'NG QAHRAMONGA AYLANGAN “ELCHILAR”

yoxud Artur Konolli va Charlz Stoddart kim edi?

(Davomi. Boshi o'tgan sonda)

Artur Konolli 1807-yilning 2-iyul kuni Britaniyaning London shahrida tug'ilgan. U o'n ikki yosh bo'lganida ota-onasidan ayriladi. Oilada Arturdan tashqari yana besh nafar aka-ukasi yetim qoladi. Ulardan uch nafarining taqdiriga “Ost Indiya” kompaniyasiga xizmat qilayotgan paytida azobli o'lim topish yozilgandi...

Konolli Regbi shahri maktabida tahsil olgandan so'ng dengiz yo'li orqali Hindistonga ketadi va ushbu mamlakatda 1823-yilda – 16 yoshida harbiy xizmatni boshlaydi. Dastlab harbiy polkda kornet (*o'sha davrdagi Britaniya otliq qo'shinlarida eng kichik unvonli ofitser, zamonaviy ekvivalenti – kichik leytenant*) vazifasida xizmat o'taydi. Aynan shu davrdan boshlab uning Britaniya uchun josuslik faoliyati boshlanadi. Leytenant Konolli navbatdagi ta'tili oxirida Hindistonga qaytib kelib, rahbariyatdan kerakli ko'rsatmalarni olgach, 1829-yilning kuzida Moskva orqali Kavkazga sayohat uyushtiradi. Ushbu sayohati mobaynida unga rus kazaklari hamrohlik qiladi. Janub sayohatlari davomida Konolli rus armiyasining barcha imkoniyatlari – ofitserlar va askarlari, ularning jang texnikasi, qo'shin tayyorgarligi va jangovar ruhini professional sinchkovlik bilan kuzatadi. Axir bu, agar ish shunga yetib borsa, Hindiston ustiga yurish boshlaydigan qo'shin edi. Shimoliy Fors davlatiga yetib borguncha ko'rganlari unda katta taassurot qoldiradi. Konolliga ushbu sayohati mobaynida boshqa qiyofaga kirishga hojat yo'q edi.

Endi u Xiva xonligiga yetib borish niyatida Qoraqum cho'lini bosib o'tishga harakat qiladi. Bundan asosiy maqsadi esa topshiriqqa ko'ra, Rossiya imperiyasi tomonidan bu mamlakatda amalga oshirilgan ishlarni aniqlash edi.

Bunday xavfli sayohat uchun dastlab u o'ziga fransuz yoki italyan shifokori niqobini tanlaydi. Ammo o'zini doktor deb tanishtirishi uchun yonida yetarli miqdorda dori-darmon va uskunalar yo'qligi sabab bu qaroridan qaytadi. Shundan so'ng u ko'p o'ylab, Xivaning mahalliy bozorida sotish uchun

shoyi bo'yinbog', ro'mol, mo'ynalar, qalampir va boshqa ziravorlar bilan savdo qiluvchi savdogar qiyofasini tanlaydi. Qiyofa obrazi yaratilgach, Erondan Xivaga boradigan karvonga qo'shilib oladi. Ammo yo'lda turkman qabilalari vakillari uning josusligini payqab qolib, ushlab oladi. Bu xabar tezda inglizlarning Erondagi yaqin garnizonlariga yetib borgach, uni mazkur mushkul ahvoldan qutqarishadi. Haqiqiy razvedkachi bo'lgan Konolli bu safar Xivaga yetib borolmagan bo'lsa-da, allaqachon Qoraqum va Kaspiy mintaqasi to'g'risida qimmatli ma'lumot to'plab ulgurgandi. Chunki London va Kalkuttada shu paytgacha bu yerlar haqida hech qanday ma'lumot yo'q edi. Ushbu ma'lumotlari orqali u Xiva u yoqda tursin, hatto Kaspiy dengizining sharqiy sohillari ham hali Rossiya imperiyasining tasarrufiga o'tmaganini aniqlagandi. Ayni shu damda Britaniya hukumati doirasi esa buning aksi bo'lishidan juda xavotirda edi.

Oldiga qo'yilgan vazifani har qanday vaziyatda ham ado etishga kirishgan Konolli 1830-yilning sentabrida tabib qiyofasida Afg'onistonning Hirot shahriga kirib keladi. U shaharda tabib qiyofasida hech qanday shubha uyg'otmasdan, uch hafta davomida yashab, shaharning mudofaasiga taalluqli barcha ma'lumotlarni sinchiklab o'rganadi. Shu bilan birga, u mazkur unumdor vodiyning oziq-ovqat ta'minotiga qiziqadi. Chunki Londondagi ma'lumotga ko'ra, ushbu vodi y istalgan bosqinchini oziq-ovqat zaxirasi bilan ta'minlash qudratiga ega bo'lgan naqd omborxonaning o'zi edi.

Konollining razvedkasi uchun navbatdagi nishon Qandahor vohasi bo'ladi. Bu shaharda uning ingliz josusi

ekani haqidagi mish-mishlar tarqalgach, zudlik bilan u yerni tark etishiga to'g'ri keladi. Ushbu so'nggi manzilidan keyin u Kvetta orqali Hindistonga qaytadi. Iqtidorli razvedkachi bo'lgan Konolli Moskvadan Hindistongacha bo'lgan 6 437 km uzoqlikdagi masofani bosib o'tishi natijasida Hindiston mudofaasi uchun mas'ul shaxslarni ancha paytdan buyon qiynab kelayotgan barcha savollarga, hatto keragidan ortig'i bilan javob topgan edi.

Oradan uch yil o'tib, 1834-yilda Konolli o'zining xavfli sayohati natijasida “Britaniya quruqliklaridan Rossiya, Persiya va Afg'oniston orqali Shimoliy Hindistonga sayohat” nomli kitobini nashr etadi. Ushbu kitob orqali muallif Hindistonni bosib olishni rejalashtirgan Rossiya imperiyasi harbiy qo'mondonlarining mavjud imkoniyatlari va muvaffaqiyat qozonish ehtimollarini batafsil ochib beradi. Asarga ko'ra, Hind dengizi sohillarida rus askarlarining cho'milishini orzu qilgan Rossiya imperiyasining oldida ikkita yo'l mavjud edi. Birinchisi Xiva va Balxni bosib olish orqali Qobul, Jalolobod va Haybar dovon yo'li orqali Peshovarga bostirib kirish edi. Shimoliy nuqta bo'lgan Xiva xonligini bosib olish uchun esa Kaspiy dengizi orqali emas, balki Orenburgdan yo'lga chiqish eng qulay yo'l hisoblanar edi. Bu yo'l zotan uzoq bo'lsa-da, Qoraqumga nisbatan ancha sersuv bo'lib, boz ustiga tajovuzkor turkmanlarga nisbatan yo'ldagi hujumkorona kayfiyatda bo'lgan qozoq qabilalarini bo'ysundirish ancha oson edi. Modomiki, rus qo'shinlari yo'ldagi qiyinchiliklarni matonat bilan yengib, Orol dengizining shimoliy qirg'oqlariga yetib olsa, u yerdan qayiq orqali Amudaryoning quyilish joyiga, shundan so'ng Xiva xonligiga qiyinchiliklarsiz kirib kelishi oson bo'lar edi.

Mana, nima uchun qonxo'r general Perovskiy oradan 5 yil o'tgach, ya'ni 1839-yilda Orenburg yo'nalishidan yo'lga chiqib, Xivani bosib olish uchun hujumga otlangan edi. Shubha yo'qki,

u Konollining yuqorida nomi qayd etilgan ushbu kitobini o'qish orqali mazkur hujum strategiyasi bilan yaxshilab tanishgan. Ammo u yo'lga chiqishdan oldin qishning qahraton sovuq kunlarini e'tiborga olmay, qattiq yanglishgan edi...

Rossiya imperiyasi harbiy qo'mondonlari tomonidan amalga oshirsa bo'ladigan ikkinchi reja sifatida esa Hirot qal'asini zabt etish nazarda tutilgandi. Rus askarlari u yerdan plasdarm sifatida foydalanish orqali, Konolli o'rgangani singari, Qandahor va Kvetta orqali Bolan dovoniga yurishi mumkin edi. Hirotga esa Fors yoki Kaspiy dengizidan Astrobodga chiqish orqali yetib olish mumkin edi. Aslida Rossiya imperiyasi qo'shinlarining bu yerga joylashishining o'ziyoq Hindistonda “porox to'la bochkaday turgan” mahalliy aholining mustamlakachi inglizlarga qarshi bosh ko'tarishi uchun kifoya edi. Modomiki, inglizlar ichki hujumlarga duch kelar ekan, bu Rossiya imperiyasining azaliy orzusini nihoyatda yengillashtirar edi. Har ikki yo'nalishda ham Afg'oniston asosiy yo'l hisoblanardi. Mana, nima sababdan har ikkala imperiya uchun ham Afg'oniston strategik jihatdan muhim bo'lgan. Aynan shuning uchun ham Rossiya imperiyasining harbiy razvedkachilari Buxoro amirligi, Qo'qon va Xiva xonliklari singari Afg'oniston hududida ham o'zlarining josuslik ishlarni nihoyatda faol olib borgan.

Muallif o'z kitobida tajovuzkor Rossiya imperiyasiga qarshi afg'onlarni Kobulda yagona kuchga birlashtirish va Kamronshohni qo'llash Angliya manfaatlariga mos kelishini ilgari suradi. Bu paytda esa lord Ellenboro Rossiya imperiyasining ushbu mintaqalarda savdo nuqtalarini kengaytirish orqali rus savdogarlarini hamma joyda himoya qilish bahonasi bilan o'z qo'shinlarini ko'paytirib, nufuzi va harbiy jihatdan barqarorlashayotganini ko'rib, ularning Britaniyaning toji hisoblangan Hindistonga tobora yaqinlashib borayotganini kuzatib turardi.

Shu bois u bu o'yinda ikki mamlakat raqobatlashuvi va rus savdogarlarining olg'a borishini Britaniya mahsulotlarining sifati to'xtatib qolishiga ishonadi. Ingliz razvedkachisi Murkroft tomonidan ilgari surilgan strategiya oradan besh yil o'tib, Britaniya rasmiy siyosatiga aylanadi. Uning orzularidan biri Hind daryosi orqali Britaniya tovarlarini shimolga, ya'ni Markaziy Osiyoning chegaralariga olib borish edi.

Xuddi shunday Artur Konolli ham Britaniya harbiy razvedkasi ofitseri bo'lib, aynan u Angliya va Rossiya imperiyalari o'rtasidagi “Katta o'yin” atamasini birinchi bo'lib ishlatgan shaxs sifatida tarixga kirgan.

1841-yilning noyabrida Konolli Britaniya Hindistoni hukumati tomonidan bir qator muhim topshiriqlar bilan birga Stoddartni qutqarish uchun Buxoro amirligiga yuboriladi. Aslini olganda, bu unga topshirilgan vazifalarning eng oxirgi o'rinda turardi. Unga birinchi navbatda Rossiya imperiyasidan Hindistonni himoya qilish maqsadida mintaqaning shimolida joylashgan Buxoro amirligi, Xiva va Qo'qon xonliklarini anchadan beri jilovini ushlo olmay qiynalayotgan Afg'oniston bilan birgalikda birlashtirish hamda ulardan Britaniyaga itoat qiluvchi

yagona ixtiyoriy federatsiya tuzish va ularni ruslarga qarshi kurashga undashdan iborat edi.

Shuningdek, ularni qullikka barham berish va hududda gumanitar islohotlarni amalga oshirish zaruratiga hamda shu orqali ruslarning bosqiniga sabab bo'lishi mumkin bo'lgan har qanday bahonasini yo'qqa chiqarishi lozim bo'lardi. Ammo topshiriq shunday bo'lsa-da, har qanday sharoitda ham mazkur mamlakatlarga inglizlarning himoyasini yoki ruslarga qarshi yordamini taklif qilmasligi kerak edi. Ushbu vazifalarni amalga oshirishi uchun Konolli bu davlatlarning imkoniyatlarini, jumladan tabiati, armiyasi, ichki siyosatlarini mukammal o'rganishi lozim edi. U dastlab o'z orzularini amalga oshirish uchun 1840-yil 3-sentabrda norasmiy, hech qanday vakolatga ega bo'lmagan holda Kobuldan Xivaga yo'l oladi. Ushbu safarda unga yana bir ingliz razvedkachisi Henri Roulinson hamrohlik qilishi nazarda tutilgan edi. Ammo so'nggi daqiqalarda uni bir vazifa bilan Afg'onistonning boshqa hududiga yuborishga to'g'ri keladi va Konolli yolg'iz yo'lga chiqishga majbur bo'ladi. Uning Xiva xonligiga bo'lgan safari ancha muvaffaqiyatli kechadi. Chunki ungacha xonlikka tashrif buyurgan boshqa ingliz josuslari Abbot va Shekspirning sayohatidan so'ng bu mamlakatda inglizlarga bo'lgan munosabat ancha ijobiy tomonga o'zgargan edi.

Konolli Xivaga kelgach, Olloqulixon tomonidan hurmat bilan qabul qilinadi va lekin uning qo'shnilar bilan ittifoq tuzish orqali yagona davlatga birlashish taklifi keskin rad etiladi. Konolli ushbu uchrashuvdan hafsalasi pir bo'lsa-da, o'ziga kerakli ma'lumotlarni yig'gach, Xiva shahridan shimol yo'nalishi orqali Qo'qon xonligiga yo'l oladi. Ushbu safar orqali u yo'l xaritalarini chizish barobarida geografik imkoniyatlarni ham o'rganadi. Konolli Qo'qon xonligida ham iliq kutib olinishiga qaramay, xonni qo'shnilar bilan ittifoq tuzishga qiziqтира olmaydi. Uning mazkur safari Buxoro amirligi va Qo'qon xonligi o'rtasida urush boshlanish vaqtiga to'g'ri kelgani sababli Toshkent orqali Buxoro amirligiga borishni o'z oldiga maqsad qiladi.

Konolli ikki xonlikda amalga oshirgan safari mobaynida ularni ittifoq tuzishga undashdek maqsadiga erisholmagan bo'lsa-da, ikki mamlakat to'g'risida Londonni qiziqtiradigan o'ta ahamiyatli ma'lumotlarni yig'ib ulgurgan edi. Bu paytga kelib esa ingliz josusining mamlakati atrofida daydib yurganidan amir Nasrulloxon o'zining josuslik tarmog'i orqali allaqachon xabardor edi. Ingliz josusi Konolli Kobuldan 1840-yilning sentabr oyi boshida yo'lga chiqqanidan buyon uning har bir qadamini amirlik maxsus xizmati kuzatib kelayotganidan bexabar edi.

Konolli Qo'qon xonligida ikki oy bo'lgan vaqtda amirlik maxsus

xizmatining "qarmog'i orqali xo'rak tashlanib", Buxoro shahrida hibsdan saqlanayotgan Stoddart bilan aloqa bog'laydi. O'z navbatida, Stoddart ham maktubida amir uning Buxoro shahriga kelishiga qarshi emasligini, oxirgi kunlarda amirning unga marhamati ancha oshgani va bu yerda unga ham yaxshi munosabatda bo'lishlariga ishonishini yozgandi.

Shu o'rinda Konolli o'zi razvedkachi ofitser bo'lishiga qaramay, ushbu maktub orqali amirlik maxsus xizmatining tuzog'iga tushgan edi.

Konolli 1841-yilning dekabrda Buxoroga yetib keladi. Dastlab amir mehmonni xushmuomalalik bilan kutib oladi. Afsuski, o'zlarini Angliya qirolichasi muhtarama Viktoriyaning vakillari deya da'vo qilgan ushbu inglizda ham diplomatiya protokollariga muvofiq rasmiy hech qanday hujjat yo'q edi. Qolaversa, qo'shni mamlakatlarda uning amalga oshirgan ishlaridan amir xabardor edi.

O'z navbatida, Konolli Buxoroga kelgandan keyin Hirotdan yana bir ogohlantiruvchi maktub keladi. Unda Konolli "Xon Ali" degan nom bilan josus sifatida ayblangan edi. Ushbu maktub Konolliga nisbatan yig'ilgan boshqa ma'lumotlar bilan birga uning qamoqqa olinishiga sabab bo'ladi.

Britaniya arxivlarida saqlangan uning xatlarida Buxoro amirligining o'sha paytdagi iqtisodiy, harbiy va siyosiy ahvoli yetarlicha tafsilotlar bilan bayon etilgan.

Konolli ham xuddi Stoddart singari Buxoroga kelishi bilan diplomatik xatolar sodir etgandi. U ham Buxoro amiri Nasrulloxon uzoq kutgan Britaniya qirolichasi Viktoriyadan rasmiy maktub olib kelmagan edi. Bu uning katta kamchiligi edi. Muhammad Hakim Xon o'zining "Muntaxab at-tavorix" asarida bu voqea haqida to'xtalib o'tgan.

Nihoyatda zukko bo'lgan Buxoro amiri Nasrulloxon o'sha paytda dunyoda sodir bo'layotgan siyosiy jarayonlarni yaxshi anglagan uchun nafaqat Rossiya imperiyasi rasmiy vakillarini, balki ingliz vakillarini ham o'ta samimiylik bilan kutib olib, ularning hurmatini joyiga qo'ygani manbalarda qayd etilgan. Chunki u bir vaqtning o'zida ham janubdan, ham shimoldan kuchli dushmanlar borgan sayin xavf tug'dirayotgani sababli vaqtini cho'zish maqsadida ular bilan tinch muzokara olib borish yo'lini tanlagandi. Zamonaviy qurollangan kuchli dushmanlarga qarshi yolg'iz amirlik kurasha olmasligini tushungani bois amirlik qurolli kuchlarini qayta isloh qilish orqali Buxoroning sobiq hududlari bo'lgan Xiva va Qo'qon xonliklari hamda Shimoliy Afg'oniston hududlarini o'z mamlakati tarkibiga qo'shib, yagona kuchli davlat qurishga intiladi. Ammo imperiyalar josuslik tarmoqlari mintaqa davlatlari ichkarisiga allaqachon kirib

ulgurgani sababli uning barcha urinishlari besamar ketadi. Mamlakat zaiflashadi, tarqoqlik yanada avj oladi.

Yuqorida nomlari keltirilgan ingliz harbiy razvedkachilari Charlz Stoddart va Artur Konollini ham Buxoro amiri diplomatiya protokoli nuqsonlariga qaramay, dastlabki uchrashuvda Britaniya vakili sifatida hurmat bilan qabul qilgan.

Ammo oradan ko'p o'tmay, ushbu ingliz harbiy razvedkachilari nafaqat rasmiy vakil emasligi, balki mamlakatda Britaniya hukumati manfaatlarini yo'lida maxfiy axborotlarni yig'ish bilan shug'ullangani fosh bo'lgani sababli o'z taqdirlariga hukmni o'zlari o'qiydi.

Hatto Buxoro amiri Nasrulloxon polkovnik Charlz Stoddartning kirdikorlari fosh bo'lib, hibsga olinganidan keyin Britaniya qirolichasi Viktoriyaga rasmiy maktub yo'llaydi. Lord Palmerston (*Foreign Secretary*) rasmiy diplomatiyaga zid ravishda maktubni qirolichaga taqdim etmasdan, uni Hindiston general-gubernatoriga yuboradi. Shunday bo'lsa-da, Buxoro amiriga na rasmiy Londondan, na Hindiston general-gubernatorligidan javob xati keladi. Bu subutsizlik holati amir Nasrulloni juda qattiq ranjitadi.


Endi bevosita hibsdan saqlangan ingliz josuslarining sharoitiga to'xtaladigan bo'lsak, ular o'sha paytda josus bo'lishiga qaramay, London matbuotida bong urilgan darajada zindonda yomon ahvolda yashaganini o'sha paytda qayd etilgan tarixiy hujjatlardan anglash u qadar qiyin emas. Zindonda saqlangan bo'lsa-da, Stoddartning tez-tez ochiq havoda sayr qilgani, so'ngra mirshablardan boshlig'ining hibsxonasiga o'tkazilgani, Britaniyadagi oilasiga maktublar yo'llab turganini hisobga oladigan bo'lsak, uning o'ta yomon ahvolda saqlanmaganini taxmin qilish mumkin.

Bu orada esa amir bir necha bor ruslarga qarshi inglizlar bilan bitim tuzish istagini lord Ralmerstonga namoyon qiladi. Hatto Kobuldagi ingliz qo'mondoni Maknaxten bilan yozishmasi buning yana bir yaqqol isbotidir. Biroq inglizlar bilan yozishmalardan hech qanday ma'no chiqmaydi.

1839-yil 31-iyul. Stoddartning zindondan qanday ozod bo'lgani haqida oilasiga shunday maktub yozadi: "Meni xizmat qilish bahonasi bilan o'ldirishlari kerak edi... Jallodlar keldi. Lekin ular bilan bahslashdim va ozod bo'ldim".

1841-yil 1-may. U yana shunday yozadi: "Buxoroga yuborilganim mening erkin maktub yo'llashimga imkon berishi kerak edi, lekin kelganimdan to'rt kun o'tib, qamoqqa tushdim. 1838-yil 21-dekabrda 1841-yil fevralgacha maktub yoza olmadim. Endi esa erkinman..." Shuningdek, maktubda Hirotda va Kobuldagi harbiy harakatlar, fors va ingliz qo'shinlari to'g'risida, o'ziga munosabat yaxshilangani va endi adovat sezmayotganini yozadi.

1841-yil, iyul. Stoddart tez orada ozod bo'lishiga va kelgan yo'li orqali ketishiga ruxsat berilishiga ishonch bildiradi. Qo'qonda bo'lgan Konollini Buxoro orqali qaytishga (*amir nomidan*) taklif etgan, lekin Konolli kelgunga qadar ketib qolishini umid qilgan.



1841-yil, avgust. U amir Nasrulloning Britaniya hukumati va o'ziga nisbatan do'stona munosabatda ekanini, yaqinda sharafli ravishda ketishga ruxsat olishini umid qilayotganini yozadi.

1842-yil 28-fevral. Stoddart bu safar singlisiga shunday maktub yo'llaydi: "Eshitgan yoki eshitadigan hamma narsaga ishonma". U ushbu xati orqali Britaniya matbuotida uning taqdiri haqida tarqalgan noto'g'ri xabarlarini nazarda tutgan edi.

1842-yil 28-may. "Rus missiyasi aprel oyining oxirida Buxorodan ketdi. Polkovnik Butenev (rus elchisi) bizni ozod qilishga harakat qilganiga ishonaman, lekin bu urinish amirning qaysarligi tufayli muvaffaqiyatsiz tugaganiga aminman".

1841-1842-yillar. Stoddart va Konollining yo'llagan maktublarida qamoqxonadagi qiyin sharoitlar, sovuq, hasharotlar va kalamushlar haqida yozilgan edi. Ushbu xatlar Buxorodan Angliyaga yashirin yo'llar orqali elchilar va xabarchilar, rus missiyasi kanali, lord Parmerstonning diplomatik kanallari, Hindiston general-gubernatori kanali orqali yuborilgan bo'lishi mumkin, deb taxmin qilsa bo'ladi.

Endi bevosita Stoddart va Konolli haqiqiy statusi haqida to'xtaladigan bo'lsak, ular yashirin ko'rsatma bilan yuborilgan harbiy josuslar edi. Bu haqda tarixiy hujjatlarda ham "Stoddart va Konolli rasmiy diplomatlar emas, balki razvedka missiyasi bilan yuborilgan harbiy ofitserlar edi", deya ko'rsatilgan.

Britaniya Hindistoni davlat arxividagi hujjatlarida bu borada quyidagicha qayd etilgan:

"Stoddart rasmiy elchi sifatida emas, balki Britaniya Hindistoni kompaniyasining siyosiy josusi (*Political Agent*) sifatida yuborilgan, unga berilgan ko'rsatmalarda "norasmiy tarzda" (*unofficial capacity*) ishlash tavsiya etilgan. Konolli esa ochiqdan ochiq *razvedka ofiseri* ("intelligence officer") vazifasini bajargan".

Britaniya Parlament hujjatlarida esa quyidagilar tasdiqlanadi:

Stoddart Amir Nasrullaxonga Britaniya qirolichasi Viktoriyadan rasmiy akkreditatsiya xatini olib kelmagan, Konolli ham shunday holatda edi – u ham rasmiy elchi emas edi. Ikkalasi ham "xususiy shaxslar" (*private individuals*) statusida Buxoro hududiga kirganlar...

(Davomi keyingi sonda)

Komiljon HASANOV,
O'z FA Tarix instituti
katta ilmiy xodimi



Surat sun'iy intellekt yordamida tayyorlandi

JANGOVAR MODULLARNING

QO'LLANILISHI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

Yildan yilga zamonaviy qurolli to'qnashuvlar xarakteri tubdan o'zgarimoqda. "Tarmoq markazlashgan urush" (*Network-centric warfare*) konsepsiyasi asosida jangovar texnikalarning nafaqat o't ochish kuchi, balki ularning axborot almashish tezligi va mo'ljallga oluvchi-operator xavfsizligini ta'minlash qobiliyati birinchi o'ringa chiqmoqda.

Jangovar modullar qurol-yarog', optik-elektron kuzatuv tizimlari va raqamli boshqaruv bloklarini o'z ichiga olgan yuqori texnologik majmuadir. Ularning asosiy vazifasi shaxsiy tarkibni zirhning "himoyasidan chiqmagan holda" dushmanni aniqlash va yo'q qilish imkonini berishidir.

An'anaviy zirhli texnikalarda mo'ljalga oluvchi-operator minora ichida o'tirib, dushmanga qarata o't ochar edi. Bu esa har qanday portlash yoki snaryad tegishi holatida inson hayotini xavf ostiga qo'yardi.

Zamonaviy jangovar modullar esa butunlay boshqacha prinsipda ishlaydi – qurol texnika ustida, askar esa zirh ostida, xavfsiz joyda monitor va joystick orqali jangni boshqaradi.

Jangovar modullarning tasnifi va tuzilishi. Jangovar modullarning rivojlanishi an'anaviy texnikalarga o'rnatilgan minoralardan voz kechib, masofadan boshqariladigan tizimlarga o'tish bilan xarakterlanadi.

Har bir zamonaviy modul quyidagi quyi tizimlardan iborat.

O't ochish platformasi: pulemyotlar (7.62 mm, 12.7 mm.dan 14.5 mm.gacha), avtomatik o'z-o'zini qayta o'qlovchi to'plar (30 mm.gacha) va raketa majmualari (*masofadan boshqariluvchan*).

Kuzatuv va nishonga olish bloki: kunduzgi yuqori aniqlikdagi kameralar, teplovizorlar, lazerli masofa o'lchagichlar. "Lochin ko'zi" (*optika*) yuqori aniqlikdagi kameralar 5-7 kilometr masofadagi nishonni kunduzi ham, tunda ham aniq ko'rsatadi. Teplovizorlar esa dushmanning issiqlik signalini, hatto qalin tuman yoki tutun (*chang*) ortidan ham ilg'ab oladi.

Stabilizatsiya tizimi: ikki tekislikda harakatlanuvchi stabilizatorlar harakatdagi nishonni 95 foiz aniqlik bilan urishni ta'minlaydi. Texnika chuqur-taqir yo'llarda soatiga 60 km tezlikda ketayotgan bo'lsa ham, modul qurolli nishonni "qo'yib yubormaydi".

Ballistik kompyuter: atrof-muhit harorati, shamol tezligi va masofani hisobga olgan holda o't ochish nuqtasini belgilaydi. Kompyuter shamol tezligi, havo bosimi va texnikaning harakatlanish burchagini soniyaning mingdan bir ulushida hisoblab, o'qning nishonga aniq tegishini ta'minlaydi.

Yengil modullar: pikap, baggi kvadratsikllar va yengil zirhli mashinalarga o'rnatiladi.

O'rta modullar: BTR va PJM turidagi texnikalar uchun mo'ljallangan.

Maxsus modullar: faqat datchiklarga tayanadigan va sun'iy intellekt yordamida ishlaydigan avtonom tizimlar.

Bugungi kunda jang maydonida askarning jasorati bilan birga u foydalanayotgan texnologiyaning "aqli" ham muvaffaqiyatni ta'minlab, g'alabani hal qilmoqda.

Inson hayotini asrash va nishonni xatosiz yo'q qilish borasidagi izlanishlar natijasida paydo bo'lgan "Jangovar modullar" (*Remote Weapon Stations – RWS*) harbiy sohada yangi davrni ochib berdi.

Hozirda jahon qurol bozorida Isroilning "Samson", Norvegiyaning "Protector" va Turkiyaning "SARP" jangovar modullari yetakchilik qilmoqda.

Masalan, bitta jangovar modul bilan jihozlangan yengil zirhli mashina, o'zidan bir necha barobar og'irroq bo'lgan dushman tankini uzoq masofadan turib yo'q qilishga qodir.

Oxirgi o'n yillikdagi zamonaviy ko'rinishdagi qurolli nizo va harbiy harakatlar tahlili shuni ko'rsatadiki, jangovar modullar bilan jihozlangan texnikalar oddiy texnikalarga qaraganda 3-4 barobar samaraliroqdir.

Shahar ichidagi janglarda zirhli mashina operatori monitor orqali 360 graduslik ko'rinishga ega bo'ladi. Bu "ko'r zonalar"ni kamaytiradi va pistirmalarni erta aniqlash imkonini beradi.

Dronlarga qarshi kurashishda zamonaviy JMLar nafaqat yerusti nishonlari, balki kichik hajmdagi

uchuvchisiz uchish apparatlarini ham aniqlash algoritmlari bilan jihozlanmoqda. Bu modullarning dasturiy ta'minoti nishonning trayektoriyasini hisoblab, uni avtomatik kuzatishga oladi va yo'q qiladi.

Kelajakdagi jangovar modullarning "miyasi" – sun'iy intellekt bo'ladi, "o'z qo'shinlari yoki dushman"ni aniqlash sun'iy intellekt algoritmlari videotahlil orqali nishonning kiyim-boshi, qurolli va harakatidan uning kimligini soniyaning ulushlarida aniqlaydi. Bu operatorlarning kritik vaziyatda adashib, o'z askarlariga o't ochish xavfini kamaytiradi.

Inson ishtirokisiz chegaralarni qo'riqlaydigan stasionar modullar hozirda Janubiy Koreya kabi davlatlarda sinovdan o'tgan. Kelajakda bunday tizimlar qaror qabul qilishda inson aralashuvini minimallashtiradi.

Rivojlanish istiqbollari:

kelajakda JMLarga kichik hajmli lazer qurilmalari o'rnatiladi, bu o'q-dorisiz dushman optikasini ishdan chiqarish imkonini beradi.

Modullarning universalligi bir xil platformaga bir necha daqiqada ham pulemyot, ham minomyot o'rnatish imkoniyati yaratiladi.

Masofadan boshqarish kanallarini dushmanning kiberhujumlaridan himoyalash eng ustuvor yo'nalishga aylanadi.

Jangovar modullarning rivojlanishi urushning yuqori texnologiyalar jangiga aylanishidir. Bizning maqsadimiz ushbu texnologiyalarni chuqur o'zlashtirish va milliy mudofaa salohiyatini yangi bosqichga ko'tarishdir. Zero "aqlli" qurol tinchlikning eng mustahkam kafolatidir.

Xulosa qilib aytish mumkinki, jangovar modullar shunchaki zamonaviy qurol emas, balki yuqori intellektga ega tizimdir. Ularning rivojlanishi askar hayotini asrab qolish, nishonga urish aniqligini oshirish va jangovar harakatlarni masofadan turib boshqarish imkonini beradi. Kelajakda ushbu tizimlar to'liq robotlashgan "aqlli" armiyalarning asosini tashkil etadi.

Polkovnik Odil ANARBAYEV,
Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti
fakultet boshlig'i, h.f.f.d. (PhD), professor.
Polkovnik Feruz KOMILOV



Buyuk sarkarda Zahiriddin Muhammad Bobur umrining 35 yilini jang-u jadallar ichida o'tkazgan. O'n ikki yoshida Temuriylar saltanatining Farg'ona ulusi hukmdoriga aylangan yosh temuriyzoda butun umrini bobokaloni Amir Temur davlatini saqlab qolishga bag'ishlagan. Temuriyzoda Gulbadanbegim tili bilan aytganda, to'liq o'n bir yil davomida olib borgan urushlar sonini sharhlashga qalam o'z. Gulbadanbegim bu o'rinda otasining Movarounnahr hududida olib borgan janglarini nazarda tutgan va jasurlik, mardlik, chidamlilik xislati kamdan kam podshohlarga xos bo'lishini ham ta'kidlagan.

Boburning OXIRGI JANGI

Bobur ismi jismiga mos ravishda jangga yo'lbars kabi kirishgan. Qilichbozlikda tengsiz jangchi hisoblangan. Darayi Xush degan joyda xazorlarga bilan bo'lgan to'qnashuvda Bobur sovut va dubulg'asiz jangga kiradi. O'sha jang payti Ahmad Yusufbek o'z hukmdoriga, **“ikki-uch o'qni ko'rdumkim, boshingizdin o'tti”**, deb xavotirga tushganida, Bobur unga: **“Siz mardona bo'lung, mening boshimdin mundoqlar xeyli o'tibtur”**, deya javob qaytargan.

Yana shunday janglarning birida Do'st Saripuliy piyoda ismli bek Boburning boshiga qilich soladi. Jiba kiygan, ammo boshiga dubulg'a kiyimagan Boburning tirik qolishining o'zi mo'zidir.

Bobur sarkarda sifatida o'zining bor harbiy mahoratini Hindistonda Panipat jangida namoyish etgan. 1526-yil 21-aprel kuni bo'lib o'tgan bu jangdan so'ng Boburiylar davlati sarhadi yanada kengayadi va poytaxt Kobuldan Agraga ko'chadi.

Yana bir yildan so'ng Rajputana ranasi Sangram Singh ikki yuz ming qo'shin to'plab, Agraga harbiy yurish boshlaydi. Sangram Singhning asosiy maqsadi Temuriylarni Hind zaminidan chiqarib yuborish edi. 1527-yil mart oyida Kanvahiya qishlog'i yaqinidagi bu jangda Bobur o'z qo'shinini urushga solishdan avval ichkilikdan tavba qilib, boshqa harbiy navkarlarni ham bu illatdan xalos bo'lishga chorlaydi. Sharob va chog'irlarni to'k'tirib tashlab, ichimlik ichiladigan oltin va kumush qadahlarni sindirib tashlattirib, ularni faqir va miskinlarga tarqattiradi. O'zining harbiy mahorati evaziga, bu jangda ham g'alaba qozongan Bobur Hindistonda butunlay o'mashib oladi. Bayana, Guvaliyor, Itava, Dholpur, Jaunpur, Rantambo'r kabi yirik qal'alarni o'z tasarrufiga kiritgan Bobur baland tog' cho'qqisida joylashgan Chanderi qal'asini egallashga bel bog'laydi.

Boburning ushbu mustahkam qo'rg'onga yurish boshlashining sababi bu hududlar ilgari musulmonlar tasarrufiga bo'lgan. Rajputlar sardori Sangram Singh Chanderini egallab olib, Medini ismli yirik harbiy sarkardaga bergan edi. Bobur esa bu joylarni yana musulmonlarga qaytarish uchun urush boshlaydi. Boburning harbiy mahorati haqida so'z yuritgan ulug' boburshunos olim Sabohat Azimjonova bu buyuk sarkardaning dushmanlarining harbiy taktika va strategiyasidan ham saboq olishi, ularning harbiy faoliyatiga baho berganiga e'tibor qaratgan. Tepalikda joylashgan Ark ichidagi kofirlar Bobur navkarlariga qarshi mardona jang qiladi. Eng so'ngida ular o'z xotinlarini o'ldirib, tirik qolgan barcha erkaklar yalang'och bo'lib, o'zlarini o'limga tayyorlab, oxirgi jangga kiradi. Oxirida qolgan o'ntachasidan biri qilichni qo'lga mahkam ushlab, chetga chiqadi va uning sheriklari navbatma-navbat bo'ynini tutib turib, o'zlarini o'ldiradi.

Chanderi qal'asini hindlardan tortib olgan Bobur bu o'lkani ham musulmonlar tasarrufiga o'tganini zikr qilib, o'z g'alabasining “fathi dorul-harb” so'zlarida tarix topganini yozib qoldirgan. Arab alifbosidagi “fathi dorul-harb” so'zlari yig'indisi abjad hisobida 934 raqamini ifodalaydi. Hijriy 934-yilni milodiyga aylantirsak, 1528-yilga to'g'ri keladi. Bobur Hind zaminida uchta yirik jangda g'alaba qozongan bo'lsa-da, hali mamlakat Sharqida Temuriylarga qarshi yangi kuchlar paydo bo'lgan edi. Bobur podshohdan mag'lub bo'lgan afg'on qavmlari Ibrohim Lo'diyning ukasi Mahmud Lo'diy atrofida birlashishni boshlaydi. Lo'diy sardori Sulton Mahmudga yetakchi afg'on sardorlari Bibban, Boyazid va Panipat jangidan oldin, Bobur xizmatiga o'tgan Suriylar sardori Sherxon va boshqa mahalliy hind rojalari, rajput ranalari ham qo'shilgan edi.

Ganga daryosining chap sohilida o'mashib olgan bu g'animlarning tanobini tortib qo'yish payti kelgan edi. Milodiy 1529-yil yanvar oyining 21-kuni Bobur Sharq tomon harbiy yurish boshlash uchun Zarafshon bog'iga ko'chib chiqadi. Bunday harbiy tadbir aslida Temuriylar uchun sohibqiron Amir Temurdan meros edi. Temuriylar saltanati asoschisi biron tomonga harbiy yurish boshlashdan avval poytaxt Samarqand shahridan tashqari chiqib, ko'pincha Konigil tepaligidagi bog'da qarorgoh o'rnatib, cherikni shaxsan o'zi ko'rikdan o'tkazgan.

Bobur bu urushga ham puxta tayyorgarlik ko'radi. Boburning farmoni asosida avvalgidan yaxshiroq to'p-zambaraklar yasatiladi va to'rt yuz yigirmata kema yasaladi. Hindiston sharoitida otlarning uzoq masofaga yurishi mushkulligi hisobga olinib, barcha navkarlar va qurol-yarog'larni kemalarga ortib, Jamna daryosi bo'ylab Sharq tomonga yurish boshlaydilar. Jamna daryosining Ganga daryosi bilan qo'shilish joyi va unga hamda undan keyin bu ikki ulkan daryoga qo'shiladigan Chambil, Saru, Ghagra kabi daryolar bo'ylab ham kemalar harakati belgilanadi. Podshohning ixtiyorida to'rtta kema bo'lgan. “Osoyish” kemasi podshohning dam olishiga, “Farmoyish” kemasi harbiy sarkardalarni qabul qilish va maxsus farmonlar chiqarishga, “Gunjoyish” kemasi podshohning xos anjomlarini tashib yurish va umumiy ishlar uchun belgilangan. To'rtinchi kemani mahalliy musulmon amirlaridan Oroyishxon sovg'a qilgan bo'lib, Bobur unga hurmat yuzasidan “Oroyishxon” deb nom qo'ygan edi.

Boburning Sharqqa yurishi oldidan Bangola elchisi kelib, temuriy hukmdori qabulida bo'lgan va o'rtada kelishuv tuzilgan edi. Bengal ko'rfazi bo'yidagi bu mamlakat podshohi sayyidlardan ekanini hisobga olgan Bobur bangolaliklarning Sulton Mahmud



Surat sun'iy intellekt yordamida tayyorlandi.

Lo'diy qo'shiniga boshpana bermaslik shartini qo'ygan edi. Bobur podshoh Saru va Sun daryolari bo'yidagi mahalliy aholining zarar ko'rmasligi chorasini ham e'tiborga oladi. Bobur quruqlikda va daryolarda harakat qilayotgan barcha qismlarga buyruq yetkazdirib, oddiy aholi yashaydigan mahallalar, ularning ekinlari xarob bo'lmasligini tayinlagan. Har tomonlama dushmanlarni ta'qib qilib kelgan Bobur armiyasi va ittifoqdosh afg'onlar bilan jang 1529-yil 6-may kuni Ghagra daryosi bo'yida bo'lib o'tadi. Uzoq muddat qochib yurgan g'animlar yo'l yopiqligi uchun Bangola tomon ochiqchasiga urushga kirishga majbur bo'ladi. Har tomondan siquv ostidagi dushmanlar Luknu qo'rg'oniga qochib kiradi. Urush asnosida qo'rg'on ichidagi kapa va uylarga o't tutashib, hatto qo'rg'on muhofaza devori ustida yurish ham qiyin bo'lib qoladi. “Boburnoma”da muallif bu holatni olov yonib turgan tandirga qiyoslagan. Bu ulug' sarkarda Boburning oxirgi jangi edi.


Bobur Ganga daryosining ikkala sohilidagi hududlarga hokimlarni tayinlaydi va Sharq tomondan ko'ngilni xotirjam qilgach, poytaxtga qaytishga qaror qilgan. Jangdan so'ng Bobur saroy a'yonlaridan Avadh hokimi Boqi Toshkandiyini qabul qilganini ham qayd etgan. Boqi Toshkandiy Avadh shahrida Bobur nomi bilan ataladigan masjid qurdirgan. Bobur masjidining peshtoqida fors tilida uch bayt bitilgan. Oxirgi satr “...Boqi xayr buvad” so'zlari bilan tugagan. Bu iboradagi harflar yig'indisi abjad hisobida 935 raqamni ifodalaydi. Hijriy, 935-yilni milodiy yilga aylantirsak, 1529 raqami kelib chiqadi.

Bobur goh suvda, goh quruqlik bo'ylab poytaxt tomon yo'l tortib, shavvol oyining o'n yettinchi kuni (milodiy 1529-yil 23-iyun) Agraga yetib keladi va Bog'i Behishtda to'xtagan. Ertasi kuni esa ammalari ziyoratiga boradi. Yana ikki kundan so'ng esa Mohimbegim boshliq haram ham Agraga yetib kelgan. Bobur podshoh o'zining Sharqqa urushga otlangan kuni Mohimbegim Kobuldan chiqqanini ta'kidlash orqali o'zining oxirgi jangi olti oyga cho'zilganini ham bildirib o'tgan.

Boburning so'nggi jangi Boburiylar davlati sarhadlarini Bangola davlatigacha bo'lgan hududlargacha kengaytirgan va mamlakatning barqarorlashuvini yanada mustahkamlagan.

Botir YO'LDOSHEV,
O'zbekiston Fanlar akademiyasi
Tarix instituti katta ilmiy xodimi

Keling, kitob o'qiyimiz!



Muhabbatga bag'ishlangan madhiya

Sizga qanday, bilmadim, biror asarda epigraf ko'rsam, o'qimasdan o'tib ketolmayman. Epigraflar meni o'ziga ohanrabodday tortadi. Bir asar birgina epigrafi bilan sizni yana bir asar yoki adib bilan tanishtiradi. Bu gal ham shunday bo'ldi. To'g'rirog'i, asardagi epigraf emas, tarjimon yozgan so'zboshidagi epigraf diqqatimni tortdi. Tarjimon Olim Otaxon. Hech qachon birgina so'zni ham behuda ishlatmagan odam!

“Siynang bunchalar sitamga to'la...” (Mirtemir)

Mana shu epigraf. Har bir tovushi dard ortmoqlagan misra. Shunday emasmi?

Olim Otaxon dunyo adabiyotining eng sara asarlarini o'zbek adabiy tiliga chevirgan zabardast ijodkor edi. **Ann Filipning “Bir lahza” asari haqida shunday yozgan:** “Bir lahza” badiiy asar bo'lsa-da, to'qimaga qurilgan emas, chindanam Ann Filipning turmush o'rtog'i, dunyoga mashhur aktyor, ellik-oltmishni qoralab qo'ygan avlod vakillari hamon havas bilan eslaydigan Jerar Filip qirchillama chog'ida, o'ttiz yetti yoshida vafot etgan. Operatsiyadan keyin o'n yetti kun joni uzilayotgan bemor yonida bo'lgan adiba xotira va xayollardan iborat mana shu kitobni yozdi. U badiha emas – nido, u qissa emas – ko'ngil faryodi, ehtiroslar vulqoni!

Asarda boshdan oyoq chin insoniy tuyg'ular ufurib turadi. Adiba inson va u yashab o'tgan hayot qadri bebaho, degan g'oyaga sodiq qoladi. Muhabbatga bag'ishlab madhiya, so'nmas bayot yaratadi. Bu mansura – shunday desak, maqsadga muvofiq bo'lardi – ko'ngil faryodi!”

Aziz o'quvchi, mazkur asarni sizga tavsiya qilishimiz uchun

Olim Otaxonning yuqoridagi fikrining o'ziyoq yetarli edi.

Shunday bo'lsa-da, baxt, qayg'u, umidlar, go'zallik qorishiq asar haqida

bir kitobsevar sifatida taassurotlarimni bo'lishgim keldi.

Tarjimon so'zi oxirida nazokat bilan shunday qo'shimcha qilibdi: “Ayg'ga buyurmasangiz, ushbu tarjimoni qizim Saidaxonga bag'ishlasam. Zero asarni tarjima qilishimga qizimning taqdiri turki bo'ldi”.

Hamma ham hayotning ma'lum damlarida atrofiga nazar solib odamlarni kuzatadi. Va insonga xos o'ylardan biri g'amgin ekan boshqalar undan ko'ra shodondek, dunyo tashvishlari yolg'iz uning boshiga tushgandek bo'ladi. Aslida har bir insonning o'ziga xos tashvishlari, dardlari, quvonch-u shodliklari bor.

“Bir lahza” – fransuz adibasining asari. Fransiya – juda olis mamlakat. Hayot tarzi, urf-odatlar, millati, dini biznikidan keskin farqli. Biroq bizga g'oyat yaqin bo'lgan, to'g'rirog'i, hammamizga xos bo'lgan eng muhim narsa bor. Bu tuyg'ular! Baxt dunyoning har bir nuqtasida ham baxtdir. Sevgi ham shunday. Ayriqlik ham...

O'qiyimiz: “Ko'pgina bolalarga o'xshab, men ham turmushi buzilgan, ko'ngli sovigach, bir-biridan o'ch olish payiga tushgan ota-onaning farzandiman; men qasos quroliman”.

Shularni o'qiy turib, yo'q, bu holat faqat fransuzlarga xos, bizga yot, deb ayta olasizmi?! Bu kabi necha bir voqealarni ko'ryapmiz, eshityapmiz.

Agar siz qiziqarli sarguzashtlar ishqi bo'lsangiz, “Bir lahza” sizning kitobingiz emas. Asarda voqealar rivoji ketidan quvilmaydi. Kechinmalar, kechinmalar, kechinmalar... Siz-u bizga yot bo'lmagan, ba'zan boshimizdan o'tgan, yuragimizni o'rtagan, har doim ham tilimizga chiqara olmaganimiz – kechinmalar, tuyg'ular, xotiralar qalamga olingan.

O'qiyimiz: “Uzoq yillar muqaddam biz kun kelib, yuragimizda to'lib-toshgan sevgi-muhabbat tufayli bitmas-tuganmas saodat eshiklari ochilishini oldindan sezardik, farzand ko'ramiz, ularni mo'tabar kishilarning bolalaridek tarbiya qilamiz, ish bilan shug'ullanamiz, do'stlar orttiramiz, o'z uyimizda, farog'atda yashaymiz, balki, kim bilsin, noumid shayton, olamni bundan ham munavvar qilishga o'z hissamizni qo'sharmiz, deb ichimizda orzu qilardik. Shu ezgu niyatlar ro'yobga chiqadigan vaqt kelgandi. Biz tahsinga sazovor bunyodkor ekanmiz. O'sha kech xorijga borib-kelganimiz ilhom berdimi yoki dilbar tun ta'siridami, bir paytlar yuragimizda saqlagan orzularimiz to'liq amalga oshganini birdaniga chuqur his qildik”.

Naqadar toza tuyg'ular, toza orzular! Kitoblar ko'p. Ular orasida aynan seniki ekani, sen uchun yozilgandek kitobni topish mushkul. Topganingda undan ajraling kelmaydi, kunlarcha seni o'zidan qo'yib yubormaydi. Xayollaringni band qiladi, o'zga cho'mdiradi. Tuyg'ular jo'nashib, moddiyatga asirlik kuchayib borayotgan shu damlarda ruhiyatni tozartiradigan nimadir bo'lsa, u ham kitobdir, rost tuyg'ular qog'ozga ko'chgan asarlardir. “Bir lahza” ana shunday qiymatga ega.

O'qiyimiz: “Ikkimiz bolalarimizning birinchi qadamlarini yashirinchamiz kuzatib turganlarimiz hamon esimda. Hozir sen ichingda o'lim kurtagini olib yurganingdek, o'sha paytda men qornimda hayot chechagini ko'tarib yurardim.

Qish tongi. Men sen bilan bolamiz o'rtasida uxlab yotardim. Naqadar farog'atli, huzurbaxsh damlar! Men bamsli shisha idishchaga o'xshardim, zohiran mo'rt tuyulgani bilan botinda bebaho boyligni saqlab kelyapman, shu lahzalarda tashqi ko'rinishga emas, ichki olamning qadriga yetmoq lozim, bu mukammal olamning mehvarida, mitti yuragim ostida yana bir olam vujudga kelayotgan edi. Hammasi bir-biriga bog'liq, bu ikkimizning sharofatimiz va ayni chog'da baxtimizdir. Baxtsizlik va o'lim – juda olis-olisidagi, xayoliy bir narsa, bir kun kelib ular bizni g'afatda qoldirishiga qaramay, baribir shu bugungi uyg'unlikka putur yetkazolmaydi”.

Bu asarni o'qib, juda ta'sirlandim. 2016-yili “Jahon adabiyoti” jurnalida

e'lon qilingan ekan. Nega avvalroq ko'rmaganimga hayronman. E'tiborli tomoni shundaki, bu jurnalda e'lon qilingan bir qator asarlar keyinchalik kitob holida ham nashr qilingan. Biror asardan ta'sirlansangiz, u haqda boshqalarga ham bildirgisingiz keladi. Kaminangiz ham bundan mustasno emas. Asarni o'qib bo'lganimdan keyin... uni birovga gapirib berib bo'lmasligini angladim. Qanday anglatilsam ekan? Yo'q, anglatish shart emas. O'qishning o'zi yetarlidir.

O'qiyimiz: “Yotog'imiz devorida biz uchun tabarruk bo'lib qolgan bir joy bor; o'sha yerga doim bir paytda nur tushib turadi. Bir kun ertalab, o'lishingdan uch kun avval, quyosh chiqdi, o'shangacha uch-to'rt kun tinmay yomg'ir yog'ib, bezor qilib yuborgandi. Men darpardani surib qo'ydim, shunda sen: “Odamning yuziga quyosh nuri tushib tursa, huzurli ekan”, deding. Men nur ko'p va uzoqroq tushib tursin uchun karavotni o'sha tomonga ozgina surib qo'ydim. Sen bir daqiqa ko'zlaringni yumib olding va “Naqadar yaxshi”, deya shivirlading.

...Undan oxirgi marta bahramand bo'lishing edi. Ertasiga yana sharros yomg'ir yog'di, indiniga ham tinmadi, keyingi kun ertalab sen vafot etding. Men bu noyabr quyoshining rangini sira unutmayman. Uning yuz-ko'zingni erkalagandek paypaslaganlari, so'ng asta qochib devorga tushgani xotiramdan o'chmaydi”.

Qadrli o'quvchi, endi ayting-chi, bu tasvirni, dardli tuyg'ularni qanday aytib berish mumkin?! Bularni gapirib berib, yurakka yetkazib bo'lmaydi, o'qishingiz kerak. Shunda o'zingizni yuraklari sevgiga limmo-lim bu juftning yonida his qilasiz, kechinmalari ko'nglingizga ko'cha boshlaydi.

O'qiyimiz: “Oylar, yillar o'tadi, fasllar almashadi. Yoz o'rnini kuz egallaydi. Hayot davom etyapti. Mana, yana ko'klam keldi. Qilt etmayotgan havo bag'rida bahorning gurkuragan bo'ylari jismimga uriladi, u dam menga kuch-quvvat, umid baxsh etadi, dam o'zi bergan his-tuyg'ularga zomin bo'ladi. Ba'zan bildirmasdan, ba'zan sitamkor – yuragimning tubiga qadar kirib boradi. Iliqqina havo, qushlarning sayrog'i, hovlimizdagi dov-daraxtlarning shoxidagi ko'z uqalagan kurtaklar, sharros quygan yomg'ir shovqini, derazam ortida yangragan kulgilar tufayli uning borligi tatimay qoladi”.

Bir go'zal sevgi qissasi, huzunli qissa, ko'ngil faryodi... Boshqa so'z aytishga ojizman. Shoir demishki:

Umr nima o'zi!

Iymon keltiray.

Hikmat bu, bahordek qisqa va ayon:

Sevgi ila mas'ud onlarni o'yla,

asil umr shuldir, qolgani – yolg'on...

Huzurli mutolaalar tilagi bilan,

Inobat IBROHIMOVA,
“Vatanparvar”



Tibbiy ko'rik

Salomatlik – tuman boylik

Yurtimizda harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolari salomatligini muhofaza qilish, ularga sifatli tibbiy xizmat ko'rsatish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu borada amalga oshirilayotgan islohotlar aholining salomatligini mustahkamlash va kasalliklarning oldini olishga xizmat qilmoqda.

Mudofaa vazirligi qo'shinlarida harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolari sog'lig'ini tiklash hamda kasalliklarning oldini olish yuzasidan chuqurlashtirilgan tibbiy tekshiruvlarni o'tkazish tizimi yo'lga qo'yilgan.

Toshkent shahri Yunusobod tumanida joylashgan qo'mondonlikda harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolari ishtirokida Sog'liqni saqlash

vazirligi hamda Markaziy harbiy klinik gospital mutaxassislari bilan hamkorlikda tibbiy ko'rik tashkil etildi.

Dastlab harbiy qism madaniyat markazida davra suhbatlari o'tkazildi. Unda so'zga chiqqanlar Vatan posbonlari uchun yaratilayotgan keng imkoniyatlar, ularning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar



xususida atroflicha fikr yuritdi.

Kunning ikkinchi qismida esa ishtirokchilar chuqurlashtirilgan tibbiy ko'rikdan o'tkazildi. Unda respublika miqyosidagi malakali shifokorlar – reproduktolog, endokrinolog, ginekolog, urolog, androlog, psixolog hamda Markaziy harbiy klinik gospital



mutaxassislari tomonidan tekshiruvlar amalga oshirildi.

Tekshiruvlar jarayonida mavjud muammo va shikoyatlar tinglandi, tashxislar qo'yildi va zarur davo muolajalari belgilandi. Qo'shimcha tekshiruv talab etilgan fuqarolarga esa tibbiy muassasalarga yo'llanmalar berildi.

TOQQQ matbuot xizmati

Uchrashuv

SOHIBQIRON SABOQLARI

Chirchiq garnizonidagi safarbarlik chaqiruvi rezervi batalyonida sohibqiron Amir Temur tavalludining 690 yilligiga bag'ishlangan "Amir Temur – mohir sarkarda va buyuk davlat arbobi" mavzusida ma'naviy-ma'rifiy tadbir tashkil etildi.



Unda mamlakatimiz ilmiy va ma'naviy hayoti vakillari ishtirok etib, sohibqironning boy merosi, uning davlatchilik va harbiy san'at borasidagi benazir tajribasi haqida atroflicha fikr yuritdi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti katta ilmiy xodimi Abdusattor Jumanazar, mudofaa vazirining vatanparvarlik targ'iboti va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha maslahatchisi bo'limi vakillari o'z chiqishlarida Amir Temur barpo etgan qudratli davlat, uning strategik tafakkuri, yuksak sarkardalik mahorati va insoniyat tamadduniga qo'shgan ulkan hissasini alohida ta'kidladi.

Ayniqsa, taniqli sharqshunos olim Abdusattor Jumanazar tomonidan sohibqiron hayoti va faoliyatiga oid, keng jamoatchilikka hali ma'lum bo'lmagan tarixiy ma'lumotlar tadbir ishtirokchilarida katta qiziqish uyg'otdi. Yangi ilmiy faktlar asosidagi ma'ruzalar tadbiri yanada jonlantirib, qizg'in savol-javoblarga ulandi.

O'z muxbirimiz

Yoshlar siyosati



ISHCHI GURUHNING navbatdagi manzili – Surxondaryo!

Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko'lamlislohotlarning markazida, shubhasiz, yoshlar turibdi. Ularning bilimli, tashabbuskor va jismonan sog'lom bo'lib ulg'ayishi bugungi taraqqiyotning eng muhim omillaridan biri sifatida qaralmoqda. Shu bois mamlakatimizda yoshlar siyosati nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham mutlaqo yangi bosqichga ko'tarildi.

Ana shu islohotlarning joylardagi ijrosi bilan yaqindan tanishish hamda yoshlar hayotiga bevosita daxldor masalalarni chuqur tahlil qilish maqsadida Respublika komissiyasi ishchi guruhi Termiz davlat universitetiga tashrif buyurdi. Ishchi guruh tarkibida O'zbekiston Mahallalar uyushmasi raisi Q. Quronboyev, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi rahbari O. Hasanov, sport vaziri maslahatchisi Sh. Mo'minjonov, Yoshlar ishlari agentligi direktori A. Sa'dullayev hamda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi mas'ul xodimi X. Eshov ishtirok etdi.

O'rganishlar shuni ko'rsatdiki, bugungi kunda Termiz davlat universiteti nafaqat ta'lim beruvchi muassasa, balki yoshlar salohiyatini yuzaga chiqaruvchi muhim ijtimoiy maydonga aylanib ulgurgan. Bu yerda talaba-yoshlar uchun yaratilgan sharoitlar ularning ilmiy, ijodiy va sport sohalarda o'zini namoyon etishiga keng yo'l ochmoqda.

Xususan, universitetda tashkil etilgan ilmiy tadqiqot markazlari va innovatsion laboratoriyalar yoshlarning ilm-fanga bo'lgan qiziqishini yanada oshirayotgani e'tiborga molik. Talabalar o'z loyihalari ustida ishlash, yangi g'oyalarni sinovdan o'tkazish va amaliy natijalarga erishish imkoniga ega. Bu esa ularni kelajakda raqobatbardosh mutaxassis sifatida shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Yoshlar bilan ishlashda ochiqlik va muloqot muhitini yaratish ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan joriy etilgan Yoshlar kuni amaliyoti doirasida har haftaning payshanba kuni universitetda



rahbarlar va talaba-yoshlar o'rtasida bevosita uchrashuvlar tashkil etilmoqda. Bu jarayon yoshlarning muammolarini joyida hal etish, ularning takliflarini qo'llab-quvvatlash va tashabbuslarini ro'yobga chiqarishga imkon bermoqda.

Universitet hududida bunyod etilgan zamonaviy sport infratuzilmalari – tennis kortlari, fitness zallari va boshqa sport maydonlari yoshlar xizmatida. Ayniqsa, kechki paytlarda talabalarning ushbu maskanlarda faol shug'ullanayotgani, sog'lom turmush tarzini hayotiy mezonga aylantirayotgani e'tiborga loyiq.


Tashrif davomida so'zga chiqqan sport vazirining maslahatchisi Sh. Mo'minjonov bugungi Yangi O'zbekiston yoshlari, xususan surxon vohasining fidoyi va shijoatli vakillari katta salohiyatga ega ekanini ta'kidlab, ularni sport bilan muntazam shug'ullanishga chaqirdi. Shuningdek, u yoshlar uchun yaratilayotgan imkoniyatlar kelajakda yuksak natijalar berishiga ishonch bildirdi.

Umuman olganda, Termiz davlat universiteti tajribasi bugungi kunda yoshlar siyosati amalda qanday ishlayotganining yorqin ifodasidir. Bu yerda yaratilgan muhit – bilim, tarbiya va sport uyg'unligi – Yangi O'zbekistonning ertangi kunini barpo etadigan barkamol avlodni voyaga yetkazishda mustahkam poydevor bo'lib xizmat qilmoqda.

Jamshid NAZAROV,
Termiz davlat universiteti
O'zbek filologiyasi fakulteti tyutori

Eng ilg'or jangchi - 2026

“OLG‘A BOS, YENGIB



Har qanday armiyaning qudrati, avvalo, unda xizmat qilayotgan harbiylarning fidoyiligi, vatanparvarligi, mustahkam irodasi, ruhiy barqarorligi va Vatanga sadoqatida namoyon bo'ladi. Ana shu yuksak fazilatlar O'zbekiston harbiylarining xalqaro maydonda qo'lga kiritayotgan yutuqlarida yaqqol aks etmoqda.

Joriy yilning 16–18-mart kunlari AQShning Missisipi shtati “Camp Shelby” harbiy o'quv bazasida bo'lib o'tgan “Eng ilg'or jangchi – 2026” musobaqasida O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi harbiy xizmatchilari – kichik serjant Ilhom Salomov va III darajali serjant Turdimurod Avlayev ishtirok etdi.

Xalqaro harbiy hamkorlik aloqalarini mustahkamlash va maxsus bo'linmalarda xizmat qilish nufuzini oshirish kabi maqsadlarda tashkil etilgan musobaqada harbiy xizmatchilarimiz 20 ta jamoadan iborat raqiblar bilan kuch sinashdi.

Musobaqa davomida harbiy xizmatchilarimiz yakka tarkibda jismoniy tayyorgarlik sinovlari (8 ta mashqni o'z ichiga olgan fitnes test), jismoniy va ruhiy zo'riqishlarni yechishga qaratilgan majmuaviy to'siqlar yo'lagidan o'tish, tunda 15 kilometr masofaga

oriyentirlash, 20 kilogramm yuk bilan 20 kilometr masofaga marsh yugurish, jangovar va umumiy tayyorgarlik bo'yicha test sinovlari, insho yozish (harbiy hamkorlik mavzusida

500 tadan kam bo'lmagan so'z), artilleriya olovini boshqarish kabi mashg'ulotlarda ishtirok etdi. Shuningdek, NATO namunasidagi o'qotar qurollarni noto'liq qismlarga yoyish, yig'ish va jangovar holatga keltirish, ulardan turli usul va sharoitlarda o'q otish, tibbiy tayyorgarlik, noma'lum hududga vertolyot aviatsiyasini chaqirish va uning yordamida obyektga yetib borib arqon yordamida tushish hamda kutilmagan (syurpriz) mashqlar kabi 13 ta shartni muvaffaqiyatli bajardi.

Mazkur musobaqa harbiy xizmatchilarning nafaqat jismoniy, balki ruhiy va intellektual salohiyatini ham sinovdan o'tkazadigan nufuzli xalqaro maydon hisoblanadi. Unda ishtirok etishning o'zi katta sharaf bo'lib, har bir ishtirokchidan yuqori darajada tayyorgarlik, mas'uliyat va matonat talab etiladi.

III darajali serjant Turdimurod AVLAYEV:

MURAKKAB TABIIY SHAROIT

– Amerika o'rmonlarida 5 ta nuqtaga oriyentirlash sharti bizga ancha qiyinchilik tug'dirdi. O'rmon shunchalik qalin daraxtlar bilan qoplangan ediki, hatto kunduz kuni ham adashib qolish ehtimoli yuqori edi. O'rmonning o'rta qismi botqoqlik,

balchiq va turli shox-shabballardan iborat bo'lib, harakatlanishni yanada murakkablashtirardi.

Tunda xarita orqali belgilangan nuqtalarni topish esa alohida e'tibor, sabr va aniqlik talab qildi. Tayyorgarlik jarayonida nazariy jihatdan yetarli ko'nikmalarga ega bo'lgan bo'lsak-da, tabiiy sharoitdagi amaliy harakatlar butunlay boshqacha kechishini yana bir bor his qildik.

Bunday vaziyatda hayajon paydo bo'lishi tabiiy. Ammo ortimizda Qurolli Kuchlarimiz, Vatanimiz va yaqinlarimiz sha'ni turganini his qilgan holda o'zimizni qo'lga olishga va olg'a intilishga harakat qildik.

JAMOAVIYLIK

– Musobaqada men safdoshim kichik serjant Ilhom Salomov bilan birga ishtirok etdim. Bunday sinovlarda sheriklarning bir-biriga bo'lgan ishonchi va o'zaro qo'llab-quvvatlashi katta ahamiyatga ega.

Biz barcha bosqichlarda yelkama-yelka turib harakat qildik. Ayniqsa, tunda notekis va murakkab yo'llardan iborat 20 kilometr masofani 20 kilogramm yuk bilan bosib o'tishda jamoaviylik asosiy omilga aylandi. Ana shu birlik va ishonch tufayli nafaqat vazifani bajardik, balki musobaqa rekordini ham o'rnatdik.

AMALIY TAYYORGARLIK SAMARASI

– Musobaqa davomida bir nechta yo'nalishlarda yuqori natijalar qayd etildi. Xususan, jismoniy va ruhiy zo'riqishlarni o'zida mujassam etgan majmuaviy to'siqlar yo'lagini 10 daqiqa-yu 34 soniyada bosib o'tib, yangi



BO'LMAS TO'SHIQ YO'Q!"



rekord o'rnatildi. Bu yo'nalishdagi oldingi natija 11 daqiqa-yu 15 soniyani tashkil etgan.

Shuningdek, jamoaviy bahslarda 20 kilogramm yuk bilan 20 kilometr masofaga marsh-yugurish sharti 1 soat-u 48 daqiqa ichida bajarildi. Bu ham yangi rekord bo'lib, avvalgi eng yaxshi ko'rsatkich 2 soat-u 15 daqiqa bo'lgan.

Ushbu natijalar O'zbekiston harbiy xizmatchilarining puxta tayyorgarligi va yuqori darajadagi jismoniy hamda ruhiy chidamliligini namoyon etdi.

QO'SHIMCHA SHARTLAR

– Musobaqaning eng e'tiborli jihatlaridan biri – shartlarga qo'shimcha ravishda yangi sinovlar kiritilgani bo'ldi. Ushbu holat ishtirokchilar uchun kutilmagan bo'lsa-da, ruhiy jihatdan bunday vaziyatlarga tayyor edik.

Kundalik mashg'ulotlarimizda turli sharoitlarda ishlashga o'rgananimiz sababli yangi shartlar ham biz uchun katta qiyinchilik tug'dirmadi. Aksincha, ular orqali o'z imkoniyatlarimizni yanada namoyon qilish imkoniga ega bo'ldik.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, safimizda xizmat qilayotgan harbiy xizmatchilarning har biri yuqori salohiyatga ega. Kundalik mashg'ulotlarimiz esa ko'plab xalqaro

musobaqalardan ham murakkab va mazmunli tashkil etilgan.

Kichik serjant Iihom SALOMOV:

SARALASH

– Musobaqaga tayyorgarlik saralash bosqichlaridan boshlandi. Unda ishtirok etish istagida bo'lgan 60 dan ortiq harbiy xizmatchi qatnashdi. Sinovlar bosqichma-bosqich qiyinlashib bordi va natijada eng munosib nomzodlar tanlab olindi.

Safdoshlarimizning barchasi yuqori salohiyatga ega bo'lib, har qanday musobaqada munosib ishtirok etishga qodir. Kundalik mashg'ulotlarning chuqurlashtirilgan tarzda tashkil etilgani esa xalqaro musobaqadagi sinovlarni yengib o'tishda muhim ahamiyat kasb etadi.

"SYURPRIZ" SINOVLAR

– Musobaqa nizomiga muvofiq, har yili shartlarga muayyan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi mumkin. Bu safar biz ham kutilmagan "syurpriz" sinovlarga duch keldik. Bizga musobaqaning o'tgan yillarda ishtirok etgan safdoshlarimiz bilan tayyorgarlik ko'rganimiz ko'p hollarda asqatdi. Qo'shimcha sifatida



3 kilometr 219 metr masofaga 20 kilogramm yuk bilan yugurish sharti kutilmagan va yangi qo'shilgan shartlardan biri bo'ldi. Shukrki, bu shartni ham a'lo darajada bajardik. Bunga o'xshash qo'shimcha sinovlar 5-6 ta atrofida edi. Biroq tizimli va puxta tayyorgarlik tufayli bunday holatlar jiddiy qiyinchilik tug'dirmadi. Har qanday vaziyatda tez moslashish va to'g'ri qaror qabul qilish ko'nikmalari amalda o'z samarasini berdi.

XALQARO E'TIROF

– Musobaqa yakunidan so'ng rivojlangan davlat harbiylari bizning tayyorgarlik uslubimizga katta qiziqish bildirdi. Bu erishilgan natijalarning xalqaro darajada tan olinganidan dalolat beradi, deb o'ylayman.

Sovrin qo'lga kiritildi. Bayrog'imiz baland ko'tarilib, madhiyamiz yangragan paytda yurakda beqiyos faxr tuyg'usi paydo bo'ldi va ko'zlarga beixtiyor yosh keldi.

Yangi O'zbekiston armiyasi safida Vatan sarhadlarini himoya qilish va unga xalqaro maydonlarda munosib bo'la olish har bir harbiy xizmatchi uchun yuksak sharaf va mas'uliyatdir.



VATAN TUYG'USI – ENG YUKSAK QADRIYAT

– Muddatli harbiy xizmat davrida Vatan tuyg'usi inson qalbida yanada chuqurroq shakllanadi. Bu tuyg'u keyinchalik hayot yo'lini belgilab beruvchi muhim omilga aylanadi. Armiya – bu nafaqat xizmat joyi, balki haqiqiy hayot maktabi. U insonni jismonan chiniqtiradi, ma'nan mustahkamlaydi va mas'uliyatni his qilishga o'rgatadi. Harbiy qismlarda yaratilgan sharoitlar esa doimiy rivojlanish va o'z ustida ishlash uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Shu bois Vatanga xizmat qilish – eng yuksak baxt va beqiyos sharaf.

Mazkur musobaqada erishilgan natijalar harbiy xizmatchilarning shaxsiy mahorati, mustahkam irodasi va Vatanga bo'lgan sadoqatining amaliy ifodasi bo'ldi. Shu bilan birga, harbiy qismlarda yaratilgan zamonaviy sharoitlar va tizimli tayyorgarlik jarayonlari ham ushbu yutuqlarda muhim o'rin tutayotganini alohida ta'kidlash joiz.

O'zbekiston harbiylari bundan buyon ham xalqaro maydonlarda yurtimiz bayrog'ini baland ko'tarishda davom etadi.

Sherzod SHARIPOV,
"Vatanparvar"



Ijtimoiy himoya



HARBIYLARNING OILALARI DAVLAT E'TIBORIDA

Mamlakatimizda harbiy xizmatchilar va ularning oilalarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning ijtimoiy muammolarini o'z vaqtida hal etish borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Shu maqsadda joylarda tashkil etilayotgan sayyor qabullar aholi bilan ochiq muloqot o'rnatish, muammolarni bevosita joyida o'rganish va samarali yechimlar ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mudofaa vazirligi Toifalangan obyektlarni qo'riqlash qo'shinlari qo'mondonligi tashabbusi bilan Navoiy viloyati Karmana tumanidagi harbiy qismda navbatdagi sayyor qabul tashkil etildi. Harbiy xizmatchilar va ularning oilalari bilan yaqindan muloqot qilish, ularning ehtiyoj va muammolarini joyida o'rganish maqsadida o'tkazilgan mazkur tadbirida Mudofaa vazirligi hamda qo'mondonlikning mas'ul ofitserlari, Navoiy harbiy prokurori, tuman hokimligi va tegishli davlat hamda nodavlat tashkilotlar vakillari ishtirok etdi.

Qabulda harbiy xizmatchilar tomonidan ijtimoiy himoya, uy-joy bilan ta'minlash, ishga joylashish kabi muhim masalalar ko'tarildi. Murojaatchilarning muammolari yuzasidan tegishli soha mutasaddilari

ishtirokida joyida muhokamalar o'tkazilib, ularni qisqa muddatlarda hal etishga qaratilgan aniq chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqildi. Shuningdek, ayrim muammolarni tizimli hal etish maqsadida aniq topshiriqlar berilib, ijrosini nazorat qilish bo'yicha mas'ullar belgilandi.

Albatta, ushbu murojaatlarning amaliy yechim topishi harbiy xizmatchilar hamda ular oilalarining farovon turmushini ta'minlashga, ularning ijtimoiy himoyasini yanada kuchaytirishga xizmat qiladi. Bunday tadbirlar orqali nafaqat mavjud muammolar bartaraf etiladi, balki harbiy xizmatchilarning davlatga bo'lgan ishonchi ortib, ularning xizmat faoliyatiga bo'lgan mas'uliyati va sadoqati yanada mustahkamlanadi.

TOQQQ matbuot xizmati

Jarayon

O'RGANISHLAR, MULOQOTLAR...

Hafta davomida Urganch harbiy prokuraturasi tomonidan qator tadbirlar amalga oshirildi.

Xususan, Gurlan tumani mudofaa ishlari bo'limida hududiy va tibbiy komissiyalar faoliyati o'rganilib, chaqiruv mavsumini sifatli va samarali o'tkazish, sohaga oid qonun hujjatlariga rioya etish borasida tegishli ko'rsatmalar berildi.

Shuningdek, Nukus harbiy sudi bilan hamkorlikda "Korrupsiya - taraqqiyot kushandasi" mavzusida ochiq muloqot o'tkazilib, so'ngra Qurolli

Kuchlar xizmatchilari bilan shaxsiy qabul tashkil etildi. Xuddi shu kabi Mudofaa vazirligiga qarashli harbiy qismlarning birida shaxsiy tarkib ishtirokida giyohvandlik hamda tavakkalchilikka asoslangan onlayn qimor o'yinlarining salbiy oqibatlarini, bunday jinoyatlar uchun javobgarlik mavzusida profilaktik tadbir o'tkazildi.

Navbatdagi tadbir Ma'mun universitetida "Kiberjinoyatlar va ularning ko'rinishlari" mavzusida bo'lib o'tdi. Unda mutaxassislar ishtirokida kiberjinoyat tushunchasi, uning turlari va javobgarlikning huquqiy asoslari haqida ma'lumotlar berildi.

Adliya kapitani
Aziz ALIMKULOV,
Urganch harbiy
prokurorining
katta yordamchisi

Qaror va ijro

KO'RSATMALAR BERILDI

O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi tomonidan Mudofaa vazirligi va Milliy gvardiyaning Qoraqalpog'iston Respublikasida joylashgan harbiy qismlari va shaharchalarida o'rganishlar olib borildi.

Jarayonda hududdagi qurilish va ta'mirlash ishlari, bunda byudjet mablag'lari iqtisod qilinishi, shuningdek harbiy xizmatni o'tash, harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolariga yashash uchun yaratilgan sharoitlar, shu bilan birga ularning ijtimoiy himoyasi, qonunchilikda nazarda tutilgan imtiyoz va imkoniyatlarning amaldagi ijrosi hamda ta'minot turlari ahvoriga e'tibor qaratildi.

Bundan tashqari, harbiy tuzilmalarda energiya tejamkorligini ta'minlash, energiya samaradorligi yuqori zamonaviy uskunalardan foydalanishning tatbiq etilishi, shu

jumladan bu boradagi yangi loyihalar va istiqbolli rejalar hamda ularning ijrosi natijalariga ahamiyat berildi.

Shu asnoda, harbiy xizmatchilar bilan ochiq muloqot o'tkazildi hamda huquqbuzarliklarning, shu jumladan korrupsiyaviy holatlarning oldini olish, yoshlarning vatanparvarlik ruhida tarbiyalash borasida va faoliyatga doir boshqa masalalar tahlil qilindi.

Yakunda mas'ullarga tegishli topshiriq va ko'rsatmalar berib o'tildi.

Adliya mayori
Ulug'bek DAUBAYEV,
Nukus harbiy prokurorining
o'rinbosari

Sayyor qabul

MUROJAAT ORTIDA INSON TAQDIRI

O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi tomonidan Qurolli Kuchlar vazirlik va idoralari rahbariyati bilan hamkorlikda olis hududlarda ommaviy sayyor qabullar o'tkazib kelinmoqda.

Bu galgi ommaviy sayyor qabul Navoiy viloyatining Zarafshon shahrida o'tkazildi. Unda harbiy xizmatchilar, xodimlar, ularning oila a'zolari, pensionerlar va yoshlar ishtirok etdi.

Dastavval ochiq muloqot o'tkazilib, yurtimizdagi islohotlar va ularning hayotiy ifodasi, harbiylar hamda ularning oila a'zolari uchun yaratilgan keng imkoniyat va imtiyozlar haqida atroflicha so'z yuritildi.

So'ngra soha mutaxassislari qatnashuvida murojaatlar tinglanib, ularni joyning o'zida hal etish choralari ko'rildi va jarayonda huquqiy maslahatlar berilib, ko'rib chiqish muddat talab etadigan murojaatlar nazoratga olindi.

Adliya kapitani
Ulug'bek XOLMAMATOV,
O'zbekiston Respublikasi Harbiy
prokurorining yordamchisi

Kelajagimiz egalari

O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi tomonidan Xorazm viloyatining olis hududida joylashgan, xususan Tuproqqal'a tumanidagi 13-maktabida tuman mas'ullari ishtirokida o'rganishlar olib borildi.

QULAYLIKLAR KO'ZDAN KECHIRILDI

Jarayonda o'quvchilar va o'qituvchilar uchun yaratilgan sharoitlar, sinfxonalar, shu jumladan chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani o'quv xonasining belgilangan talablar doirasida jihozlanishi, sport to'garaklari uchun qulayliklar ko'zdan kechirildi.

O'quvchilarning fan olimpiadalari va boshqa tanlovlardagi, oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalariga kirish ko'rsatkichlariga doir tahlillar, shuningdek o'quvchi-yoshlarni Vatanga muhabbat va sadoqat, qonunga hurmat ruhida tarbiyalash borasidagi tadbirlar natijalariga e'tibor qaratildi.

Yakunda vatanparvarlik ruhida, shu bilan birga huquqbuzarliklarning oldini olishga oid keng qamrovli va hamkorlikdagi amaliy tadbirlarni tashkil etish yuzasidan tavsiyalar berib o'tildi.

Adliya mayori
Farrux SAYSULTANOV,
O'zbekiston Respublikasi Harbiy
prokuraturasi bo'lim boshlig'i

Huquqiy profilaktika

SHAROITLAR O'RGANILDI

O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi tomonidan Ichki ishlar vazirligining Navoiy viloyatidagi harbiy qismlaridan birida o'rganish olib borildi.

Unda xizmat o'tash sharoitlari, tibbiy va boshqa ta'minot turlari ahvoli, shaxsiy tarkib va harbiy texnikalar shayligi hamda faoliyatga doir boshqa masalalarga e'tibor qaratildi.

Jarayonda harbiy xizmatchilar uchun qurilishi boshlangan turarjoy majmuasi loyihalari, bunda byudjet mablag'lari maqsadli sarflanishi va harbiy oilalarning turmush sifatini yanada yaxshilashga doir istiqbolli rejalar bilan tanishildi.

Yakunda kamchiliklar tanqidiy ko'rib chiqilib, mas'ullarga tegishli topshiriq va ko'rsatmalar berildi.

So'ngra shaxsiy tarkib bilan ochiq muloqot o'tkazilib, Prezidentimiz tashabbusi bilan harbiy xizmatchilarga joriy etilgan yangi imtiyozlar va imkoniyatlar haqida so'z yuritildi.

Bundan tashqari, korrupsiya va boshqa huquqbuzarliklarning oldini olish, kiberxavfsizlikni ta'minlash, giyohvandlik va boshqa illatlardan saqlanish borasidagi talablar eslatib o'tildi.

Adliya polkovnigi Dilmurod HAMROYEV,
O'zbekiston Respublikasi Harbiy
prokuraturasi bo'lim boshlig'i

Ijtimoiy himoya

“Vatanparvar” tashkiloti Buxoro viloyati kengashi tasarrufidagi Buxoro tumani o‘quv sport-texnika markazining belgilangan standartlarga muvofiq qurib bitkazilgan o‘quv avtodromi foydalanishga topshirildi.



ZAMONAVIY AVTODROM FOYDALANISHGA TOPSHIRILDI

Tantanal ochildish marosimida “Vatanparvar” tashkiloti markaziy kengashi va viloyat kengashi rahbariyati hamda keng jamoatchilik vakillari ishtirok etdi.

“Vatanparvar” tashkiloti markaziy kengashi raisi Husan Botirov o‘z nutqida bunga qadar viloyatda tashkilotning ikkita zamonaviy avtodromi foydalanishga topshirilgani, Buxoro tumanida ochilgan ayni avtodrom uchinchi ekani va yaqin oylar ichida G‘ijduvon tumanida ham xuddi shunday inshoot barpo etilishini bildirdi.

Tashkilotning viloyat kengashi tasarrufidagi o‘quv muassasalariga 12 ta “Chevrolet Onix” yengil va 6 ta “Foton” yuk avtomobillarining topshirilishi tadbirga

yanada ko‘tarinki ruh bag‘ishladi. Endilikda ushbu o‘quv avtomobillaridan avtomototransport vositalari haydovchilarini tayyorlash kurslarida “B”, “BC” va “C” toifalari bo‘yicha o‘qiyotgan fuqarolar amaliy mashg‘ulotlarda foydalanadi.

Tadbir yakunida Buxoro viloyati kengashi raisi Rustam Bayozov rahbariyatga G‘ijduvon tumani o‘quv sport-texnika markazi negizida qurilishi rejalashtirilayotgan yangi o‘quv avtodromining loyihasini taqdim etdi. Husan Botirov tomonidan loyihani takomillashtirishga qaratilgan bir qator taklif va tavsiyalar berildi.

“Ipak yo‘li – 2026”

DUNYO MOTOSPORTCHILARI NAVOIYDA

Navoiy viloyatining Karmana tumanida joylashgan mototrassada O‘zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko‘maklashuvchi “Vatanparvar” tashkiloti tomonidan sportning motokross turi bo‘yicha O‘zbekiston ochiq chempionati va birinchiligining 2-bosqich musobaqasi hamda “Ipak yo‘li – 2026” xalqaro ochiq kubogi o‘tkazildi.



Respublikamizning turli hududlaridan qatnashgan sportchilar birinchilikda “65 sm³”, “85 sm³”, “125 sm³” sinflarda hamda chempionatda “125 sm³”, “500 sm³”, “ChZ-3503”, “750 sm³”, “500 sm³”, “Xitoy”, “Faxriylar A”, “Faxriylar B” sinflarida bellashdi.

Xalqaro kubok musobaqasida esa Xitoy, Rossiya, Belarus, Armaniston, Tojikiston, Qirg‘iz, Qozog‘iston va O‘zbekistonning mohir poygachilari “125 sm³” MX-2, “MX OPEN sm³”, “750 MX” sinflarida sport mototsikllarida marra sari harakatlandi.

130 dan ortiq sportchi jam bo‘lgan ushbu ekstremal poyga bahslari quyidagi natijalar bilan yakunlandi:

BIRINCHILIKNING 2-BOSQICH MUSOBAQASI:

“125 sm³” (o‘smirlar) sinfida:

1-o‘rin: Zulfarbek Bahodirov (Buxoro v.);
2-o‘rin: Saidbobojon Saitov (Navoiy v.);
3-o‘rin: Asadbek Hakimov (Jizzax v.).

“65 sm³” sinfida:

1-o‘rin: German Usov (Toshkent sh.);
2-o‘rin: Sherbek Suvonov (Navoiy v.);
3-o‘rin: Abduvosit Abdukurimov (Suxondaryo v.).

“85 sm³” sinfida:

1-o‘rin: Oybek Qobiljonov (Sirdaryo v.);
2-o‘rin: Yaroslav Maslyannikov (Navoiy v.);
3-o‘rin: Sherxon Suvonov (Navoiy v.).

Jamoahisobida:

1-o‘rin: Navoiy viloyati;
2-o‘rin: Sirdaryo viloyati;
3-o‘rin: Buxoro viloyati jamoalari.

O‘ZBEKISTON CHEMPIONATI 2-BOSQICH MUSOBAQASI:

“125 sm³” (katta yoshlilar) sinfida:

1-o‘rin: Bekzod Halimboyev (Buxoro v.);
2-o‘rin: Jasurbek Samatov (Buxoro v.);
3-o‘rin: Bogdan Satryan (Navoiy v.).

“ChZ-3503” sinfida:

1-o‘rin: Rashid Ibragimov (Toshkent sh.);
2-o‘rin: Shevket Suleymanov (Toshkent v.);
3-o‘rin: Marsel Galiyev (Jizzax v.).

“500 sm³” sinfida:

1-o‘rin: Bekzod Halimboyev (Buxoro v.);
2-o‘rin: Jasurbek Samatov (Buxoro v.);
3-o‘rin: Andrey Sazonov (Toshkent v.).

“500 sm³” (Xitoy) sinfida:

1-o‘rin: Dilshodjon Ne‘matjonov (Farg‘ona v.);
2-o‘rin: Dilmurod Rahimov (Toshkent sh.);
3-o‘rin: Timur Karimbekov (Toshkent sh.).

“750 sm³” sinfida:

1-o‘rin: Viktor Lavrov, Bedriy Akimov (Toshkent v.);
2-o‘rin: Sohijjon Jabborov, Tohirjon Sodiqov (Xorazm v.);
3-o‘rin: Asror Haitov, Azim Ergashev (Navoiy v.).

“Faxriylar” (A) sinfida:

1-o‘rin: Qurbonmurod Jo‘rayev (Tojikiston);
2-o‘rin: Marsel Galiyev (Jizzax v.);
3-o‘rin: Dilshodjon Ne‘matjonov (Farg‘ona v.).

“Faxriylar” (B) sinfida:

1-o‘rin: Nikolay Sharabayev (Xorazm v.);
2-o‘rin: Igor Bochkaryov (Namangan v.);
3-o‘rin: Anvar Burxonov (Tojikiston).

Jamoahisobida:

1-o‘rin: Toshkent viloyati;
2-o‘rin: Toshkent shahri;
3-o‘rin: Buxoro viloyati jamoalari.

“IPAK YO‘LI – 2026” XALQARO OCHIQ KUBOGI:

“MX OPEN sm³” sinfida:

1-o‘rin: Ilya Malix (Rossiya);
2-o‘rin: Nikita Bogdanov (Rossiya);
3-o‘rin: Konstantin Pozdnyakov (Rossiya).

“125 sm³” MX-2-sinfida:

1-o‘rin: Ivan Lepyoxin (Rossiya);
2-o‘rin: Yevgeniy Mironov (Belarus);
3-o‘rin: Kirill Dorojkin (Rossiya).

“750 MX” sinfida:

1-o‘rin: Artyom Boronenkov, Yegor Boronenkov (Rossiya);
2-o‘rin: Viktor Lavrov, Bedriy Akimov (O‘zbekiston);
3-o‘rin: Igor Poluxin, Vyacheslav Bamburkin (Rossiya).

Jamoahisobida:

1-o‘rin: Rossiya Federatsiyasi;
2-o‘rin: O‘zbekiston Respublikasi;
3-o‘rin: Belarus Respublikasi jamoalari.

G‘oliblikni va yuqori o‘rinlarni qo‘lga kiritgan sportchilar “Vatanparvar” tashkilotining diplom va esdalik sovg‘alari bilan taqdirlandi.

Hisobot

QO‘MITANING UMUMIY YIG‘ILISHI O‘TKAZILDI



O‘zbekiston mudofaasiga ko‘maklashuvchi “Vatanparvar” tashkiloti markaziy kengashi Kasaba uyushmasi qo‘mitasining 2025-yil yakunlari bo‘yicha hisoboti hamda 2026–2029-yillar uchun tuzilgan Jamoa shartnomasi loyihasining muhokamasi yuzasidan umumiy yig‘ilish bo‘lib o‘tdi.

Unda Kasaba uyushmasi qo‘mitasi raisi Sobirjon Yusubjanov o‘tgan yil davomida O‘zbekiston Respublikasi mehnat qonunchiligi hamda kasaba uyushmalari faoliyatiga oid normativ-huquqiy hujjatlar talablaridan kelib chiqib, amalga oshirilgan ishlar yuzasidan batafsil hisobot berdi.

Markaziy kengash Kasaba uyushmasi qo‘mitasining hisobot davridagi faoliyati yig‘ilish ishtirokchilari tomonidan atroflicha muhokama qilinib, bir ovozdan qoniqarli deb topildi. Shuningdek, O‘zbekiston

mudofaasiga ko‘maklashuvchi “Vatanparvar” tashkiloti markaziy kengashining 2026–2029-yillar uchun mo‘ljallangan Jamoa shartnomasi loyihasi ko‘rib chiqildi. Muhokamalar yakuniga ko‘ra, mazkur hujjat yig‘ilish ishtirokchilari tomonidan bir ovozdan ma‘qullandi.

Tadbir davomida Kasaba uyushmasi qo‘mitasi faoliyatini yanada takomillashtirish yuzasidan xodimlarning taklif va mulohazalari tinglandi hamda istiqboldagi ustuvor vazifalar belgilab olindi.

Chempionat

ENG YAXSHI AVIAMODEL SPORTCHILARI ANIQLANDI



3-o‘rin: Umid Tojimaxamatov (Toshkent sh.).

F-1M (yoshlar) sinfida:

1-o‘rin: Shohruh Salimov (Buxoro v.);
2-o‘rin: Firuz Bahodirov (Buxoro v.);
3-o‘rin: Anvar Ochilov (Buxoro v.).

Jamoahisobida 1-o‘rinni Buxoro viloyati, 2-o‘rinni Toshkent shahri-1 va 3-o‘rinni Toshkent shahri-2 jamoalari egalladi.

Yuqori o‘rin va g‘oliblikni qo‘lga kiritgan sportchilarga tashkilotning diplom va esdalik sovg‘alari topshirildi.



Xorazm viloyatining Urganch shahrida O‘zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko‘maklashuvchi “Vatanparvar” tashkiloti tomonidan xona aviamodellari bo‘yicha respublika chempionati o‘tkazildi.

Musobaqada Toshkent shahri va viloyatlardan tashrif buyurgan 60 dan ortiq sportchi o‘zlari tomonidan yasalgan xona aviamodellarining yopiq binoda ucha olish imkoniyatlarini namoyon etdi.

Ikki kun murosasiz va qizg‘in kechgan chempionat quyidagi natijalar bilan yakunlandi:

F-1D (katta yoshlilar) sinfida:

1-o‘rin: Shahboz Bafojev (Buxoro v.);
2-o‘rin: Alisher Mirzayev (Farg‘ona v.);
3-o‘rin: Shamsiddin Bafojev (Buxoro v.).

F-1N (katta yoshlilar) sinfida:

1-o‘rin: Shahboz Bafojev (Buxoro v.);
2-o‘rin: Farrux Safojev (Navoiy v.);
3-o‘rin: Viktor Yundin (Toshkent sh.).

F-1D (yoshlar) sinfida:

1-o‘rin: Shohjahon Zaripov (Buxoro v.);
2-o‘rin: Temur Jo‘rayev (Toshkent sh.);
3-o‘rin: Arsen Kurtveliyev (Toshkent sh.).

F-1N (yoshlar) sinfida:

1-o‘rin: Temur Jo‘rayev (Toshkent sh.);
2-o‘rin: Stanislav Smimov (Toshkent sh.).

27-mart – Xalqaro teatr kuni



“TURON”

DAVLAT HARBIIY TEATRI – jasorat va matonat targ'ibotchilari

Inson ma'naviyatini tarbiyalashda teatr san'atining o'rnini beqiyos. Zero san'at insonni ma'naviy jihatdan boyitadi, ijodiy qobiliyatini rivojlantiradi, ezgulik sari yetaklaydi.



27-mart sanasi Xalqaro teatr kuni sifatida 1961-yili YUNESKO huzuridagi Xalqaro teatr instituti tomonidan Avstriyaning Vena shahrida bo'lib o'tgan IX kongressida ta'sis etilgan edi. Hozirgi kunda jahonning 100 dan ziyod mamlakatida 27-mart kuni teatr san'ati xodimlarining kasb bayrami sifatida keng nishonlanib kelinmoqda.

Mudofaa vazirligi tizimida **2018-yilda “Turon” teatr studiyasi tashkil etilgan bo'lsa**, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 3-maydagi “O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi “Turon” teatr studiyasi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori bilan “Turon” davlat harbiy teatriga aylantirilgan.

O'tgan davr mobaynida “Turon” davlat harbiy teatrida salmoqli ishlar amalga oshirildi. Xususan, **“Jaloliddin Manguberdi”, “Mirzo Ulug'bek”, “O'lan”, “Sarqomat dilbarim”, “Kechikkan kuz taronasi”, “Bardosh”, “Yashash uchun kechikma”, “Chachvon”, “Tillo tabassumlar”, “Spitamen”, “Temur sag'anasi”, “Boburning**

tushlari”, “Jadidnoma”, “Padarkush”, “Burungi saylovlar”, “Ona qalbi” kabi 30 dan ortiq yuksak vatanparvarlikni targ'ib etishga qaratilgan, buyuk sarkarda va ajdodlarimiz, shuningdek zamondoshlarimiz qahramonliklarini o'zida aks ettiruvchi teatr asarlari va sahna ko'rinishlari yaratildi.

Shu bilan bir qatorda, shonli tariximiz, boy madaniy-ma'naviy merosimizning, shuningdek **ulug' ajdodlarimiz hamda buyuk sarkardalarimizning ko'rsatgan jasorati, qahramonligini ulug'lovchi, vatanparvarlik va milliy armiyamizdan g'ururlanish va milliy ruhni yanada mustahkamlash maqsadida** bugungi kunda “Turon” davlat harbiy teatri jamoasi tomonidan muntazam ravishda olis hududlarda joylashgan harbiy qism va muassasalarda harbiy xizmatchilar hamda aholining madaniy hordiq chiqarishi uchun qator spektakllar namoyish etib kelinmoqda.

Sana munosabati bilan Mudofaa vazirligi Ma'naviyat va madaniyat departamentida tanatanali tadbir

o'tkazildi. Unda ishtirok etgan mudofaa vaziri o'rinbosari general-mayor Hamdam Qarshiyev teatr san'ati inson ma'naviyatini boyitishda muhim o'rin tutishi va hayotga teranroq nazar bilan qarashga undashi hamda inson qalbida ezgulik, mehr-oqibat va vatanparvarlik tuyg'ularini mustahkamlashga xizmat qilishini ta'kidladi.

Shuningdek, Mudofaa vazirligi tizimida faoliyat yuritayotgan “Turon” davlat harbiy teatri ijodkorlari tomonidan sahnalashtirilgan teatr asarlari va spektakllari harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolarini ma'naviy dunyosini boyitishda ulkan hissa qo'shayotganini e'tirof etdi.

Shundan so'ng sana munosabati bilan teatr aktyorlari va ijodkorlarining mehnati sharaflanib, xodimlarning bir guruhiga Mudofaa vazirligining “Yosh avlodni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdagi faol ishtiroki uchun” ko'krak nishoni hamda qimmatbaho va esdalik sovg'alari topshirildi.

**Kapitan
Dilshod RO'ZIQULOV,
“Vatanparvar”**



MUASSIS
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MUDOFAA VAZIRLIGI

VATANPARVAR



Tahririyat kengashi:

general-mayor Hamdam Qarshiyev
podpolkovnik Ulug'bek Fattaxov
Maqsud Abilov

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin. Gazeta Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamenti – “Vatanparvar” birlashgan tahririyatining kompyuter markazida sahifalandi.

Shu songa mas'ul:

kapitan Bobur Elmurodov

ISSN 2010-5541

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2008-yil 6-iyunda 0535 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Telefonlar:

kotibiyat: 55 511-25-90
buxgalteriya: 55 511-25-76
yuridik bo'lim: 55 511-25-72

Navbatchi: leytenant Mansurbek Jabborov

Sahifalovchi: Dilnoza Meliqo'ziyeva
Musahhih: Mastura Qurbonova

Buyurtma: V-6103

Hajmi: 6 bosma taboq
Bichimi: A3
Adadi: 33 878 nusxa
Bosishga topshirish vaqti: 14:00
Topshirildi: 14:30

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “O'zbekiston” NMIU mas'ul.

Gazeta juma kuni chiqadi.

Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqq boshlagan.

Nashr ko'rsatkichi: 114.
Bahosi: kelishilgan narxda.

“O'zbekiston” nashriyat-matbaa ijodiy uyi bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Alisher Navoiy ko'chasi, 30-uy.

1 2 3 4 5 6

Manzilimiz: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani Sag'bon ko'chasi, 382-uy.

@Vatanparvargazetasi_bot
“Vatanparvar” birlashgan tahririyati bilan bog'lanish uchun telegram bot



BIZ HAQIMIZDA



www.mudofaa.uz



t.me/mv_vatanparvar_uz
t.me/mudofaavazirligi



www.mv-vatanparvar.uz
vatanparvar-bt@umail.uz



mudofaavazirligi



mudofaavazirligi



www.youtube.com/c/UzArmiya